



Scientific Journal

# RESEARCH AND EDUCATION

*Exact and Natural Sciences*

ISSN: 2181-3191

researchedu.org




VOLUME 3, ISSUE 11

2024/11



zenodo

ISSN 2181-3191  
VOLUME 3, ISSUE 11  
DECEMBER 2024



<https://researchedu.org/>

**“RESEARCH AND EDUCATION” SCIENTIFIC JOURNAL**  
**VOLUME 3, ISSUE 11, DECEMBER, 2024**

**EDITOR-IN-CHIEF**

**X. Idrisov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana State University*

**EDITORIAL BOARD**

**I. Urazbayev**

*Professor, Doctor of Biological Sciences, Gulistan State University*

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldashova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

**A. Juraev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Agency of the Republic of Uzbekistan for Plant Quarantine and Protection, Head of the Andijan Regional Department*

**A. Turdaliev**

*Associate Professor, Doctor of Biological Sciences, Fergana State University*

**N. Mamadjonova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**M. Rakhmonova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**U. Mirzayev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**A. Rasulov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers*

**B. Khasanov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering*

*Editorial Secretary: J. Eshonkulov*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14501774>

## ENERGIYANI TEJASH VA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH

I.Muradov.

Magistr, A.Bo'riev, Sh.Boboyorov.

### АННОТАЦИЯ

*Ushbu maqolada O'zbekistonning energetika siyosati mamlakatning energetika xavfsizligini ta'minlashga, milliy energetika tarmog'i salohiyatidan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishda foydalanishga qaratilgan masalalar ko'rib chiqilgan.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматриваются вопросы энергетической политики Узбекистана, направленные на обеспечение энергетической безопасности страны, использование потенциала национальной энергетической сети для решения социальных и экономических проблем.*

**Tayanch so'zlar:** energetika siyosati, Qazilma yoqilg'ilar sayyora, insoniyat, energiya zaxiralarini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish, eskirib qolgan infratuzilmaning zaifligini va mavjud energiya tejovchi texnologiyalarning nomutanosibliigi.

Yillik energiya yuqotishlarini ikki uch baravar pasaytirishni bilgilagan holda mamlakatimizning barcha hududlarida elektr taqsimlash tarmoqlarini 2027 yil 1 iyulga qadar, tabiiy gaz tarmoqlarini esa 2027 yil yakuniga qadar xususiy operatorlarga topshish rejalashtirilgan.

Ma'lumki, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanib, turmush darajasi yaxshilangani sari energiyaga talab ham oshib boradi. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yilda yurtimizda elektr energiyasi iste'moli 20 foizga, jumladan, aholi tomonidan sarflanishi 31 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich yiliga 6 foizdan o'sib bormoqda.

Shu bois energiya ishlab chiqarish izchil rivojlantirilmoqda, bunga qo'shimcha suv, quyosh, shamol energetikasi stansiyalari barpo etilmoqda. Shu bilan birga, elektr energiyasi va tabiiy gaz sarfini hisoblash tizimi ham tartibga keltirildi. Endigi muhim vazifa – bu ne'matni qadrlab, tejab, o'z o'rnida foydalanish.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda energiya barqarorligini ta‘minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 10 foizni tashkil etmoqda. Bu borada O‘zbekiston 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 27 gigavattga yetkazib, elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmini kamida 40 foizga olib chiqishni maqsad qilgan.

Bu har yili 25 mlrd kub metr tabiiy gazni tejash, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 mln tonnaga qisqartirish imkonini beradi.

Albatta, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish, energetik barqarorlikni ta‘minlash uchun sohaning huquqiy bazasini mustahkamlash talab etiladi.

Boz ustiga uglevodorod resurslarining chegaralanganligi, ularning kamayishi energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish choralarini ko‘rish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, amalda mamlakatimizda energiya resurslari iste‘moli samaradorligini, energiya sarfi me‘yorlari hamda energiya audit o‘tkazishni monitoring qilishning ta‘sirchan tizimi mavjud emas.

Davlat muassasalari va tashkilotlarida zamonaviy energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha energiya servis xizmatlari yo‘qligi, shuningdek, tejash va samaradorlikni oshirish yo‘nalishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlari sust borayotgani ham bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Energetika sohasida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, sohaga xorijiy va xususiy investitsiyalar jalb etishni ko‘paytirish, narx shakllanishining erkin va shaffof mexanizmlarini joriy qilishga asoslangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozorlarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Energetika xavfsizligini ta‘minlash, energiyani tejash hamda samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish tartib-tamoyillari, elektr va issiqlik energiyasi, yoqilg‘i va noan‘anaviy energiya resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlari hamda ijtimoiy sohada tejamli va samarali foydalanish vazifalari va qoidalari belgilab berilmoqda.

Shuningdek, energiyani tejash va energiya samaradorlik talablarini buzganlik va resurslarni me‘yordan ortiqcha sarflagani uchun javobgarlikni belgilash ham nazarda tutilgan. Qurilish va transport sohasida, bino hamda inshootlarda, issiqlik ta‘minoti va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarida, qishloq va suv xo‘jaligida energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirish yo‘nalishlari ko‘zda tutilmoqda.

Hozirda elektr energiyasini ishlab chiqarish va yetkazib berish qanchalik ko'paymasin, agar har bir inson iqtisodiyotda, ijtimoiy soha ob'ektlarida va uy xo'jaliklarida energiya samaradorligini oshirish bo'yicha doimiy ish olib bormas ekan, energiya resurslarining katta qismi isrof bo'lishda davom etaveradi.

Bugun mamlakatimizda aholi sonining ko'payishi, xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi jadal rivojlanishi va ularning energiyaga bo'lgan talabi yil sayin ortib borayotgani bois mamlakatimizda energiya resurslariga bo'lgan munosabatni o'zgartirish ehtiyoji tug'ilmoqda.

Barcha mamlakatlar u yoki bu tarzda, uning iste'molini tartibga solish zaruratiga duch keladi.

Shu boisdan mamlakatimizda energiya resurslaridan foydalanishda isrofgarchilikni kamaytirish, iqtisodiyot tarmoqlari ob'ektlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanishni tizimli yo'lga qo'yish maqsadida bir qator ishlar qilinmoqda.[1].

Xususan, O'zbekiston Respublikasining energetika siyosati mamlakatning energetika xavfsizligini ta'minlashga, milliy energetika tarmog'i salohiyatidan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishda foydalanishga qaratilgan.

Hozirda elektr energiyasini ishlab chiqarish va yetkazib berish qanchalik ko'paymasin, agar har bir inson iqtisodiyotda, ijtimoiy soha ob'ektlarida va uy xo'jaliklarida energiya samaradorligini oshirish bo'yicha doimiy ish olib bormas ekan, energiya resurslarining katta qismi isrof bo'lishda davom etaveradi.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda energetika sektori har qanday mamlakat taraqqiyotining poydevoridir energetikasiz hech qanday ishni bajarib bo'lmaydi. Aynan shu narsa iqtisodiyotni rivojlantirish, odamlarning farovon yashashi, ta'lim, tibbiy yordam, ijtimoiy ta'minot, kommunal xizmatlar kabi muhim ijtimoiy sohalarning normal faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratish imkonini beradi.

Bu esa, tabiiyki, har birimizdan tejamkorlikni hamda energiya samarador texnikalardan keng foydalanishimizni talab qiladi.

Xo'sh, aslida biz energoresurslarni nima uchun tejashimiz kerak?

Tabiatga g'amxo'rlik qilish uchun. Energiya samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatda atrof-muhitga kamroq zarar yetkaziladi. Energiya samaradorligiga qat'iy rioya qilgan idora yoki tashkilot esa zarur bo'lganidan ko'ra ko'proq resurslardan foydalanmaydi. Elektr energiyasi va suvni tejaydi.

Energiya samaradorligi tashkilot mablag'ini iqtisod qilish va bundan ortgan mablag'ni ishlab chiqarishni o'stirishga yo'naltirish imkonini beradi.

Tashkilotlarda energiyani qanday qilib samarali tejash mumkin:

Avvalo, tashkilot joylashgan binoning kirish (foye qismi), pol hamda xonalarida issiqlik o'tkazuvchanligi past va yuqori sifatli oynali eshiklardan foydalanilishi kerak;

ob-havo sharoitiga qarab uy isitish radiatorlari uchun suv isitishning harorati va intensivligini o'zgartirish imkonini beradigan avtonom qozonxona bo'lishi kerak;

kirish va polni yoritishda dimmerlardan foydalanish, chiroqlarni yoqish va o'chirish davrlarini o'lcaydigan taymerlar, yo'lakning turli qismlarida ikki yoki uchta kalitli sxemalarni joriy etish kerak;

ishlab chiqaruvchi asbob-uskunalar, texnologiyalarning energiya samaradorligi xalqaro talablar darajasida bo'lishiga alohida ahamiyat qaratilishi zarur;

xodimlar ish davomida ortiqcha yonayotgan chiroqlarni o'chirib qo'yishlari, foydalanilmayotgan kompyuterlarni esa "uyqu" holatiga kiritib qo'yishlari lozim. Hisob-kitoblarga ko'ra, birgina televizor, magnitofon va boshqa audiotizim jihozlari kutish rejimida soatiga o'rtacha 10 vatt va oyiga o'rtacha 7,3 kVt·soat elektr energiyasini sarflaydi. Ularni tarmoqdan to'liq uzib qo'yish lozim. [2].

O'zbekistonning uglerod izini kamaytirish va o'zining iqlim bilan bog'liq bo'lgan maqsadlariga erishish yo'lidagi intilishlarini inobatga olgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va energiya samaradorligini oshirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarga aylandi.

Quyosh va shamol resurslari, xalqaro ko'mak va texnologik yutuqlar tufayli O'zbekiston o'zining energetik landshaftini o'zgartirish va barqaror kelajakka yo'l ochish uchun noyob imkoniyatlarga ega. Biroq shunday maqsadga erishish uchun barcha manfaatdor tomonlarning, shu jumladan, siyosatchilar, investorlar va xususiy sektorning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetika va energiya samaradorligini yaxshilash muammolari va imkoniyatlari ko'rib chiqiladi hamda yanada sof va farovon kelajak sari qadamlarni jadallashtirish bo'yicha yechimlar taklif qilinadi.

O'zbekiston tog'-kon, qayta ishlash va resurslarni qazib olish sanoati tufayli so'nggi o'n yilda g'aroyib iqtisodiy o'sishga erishdi. Biroq bunday o'sish omadsizliklardan xoli emas. Energiya uchun qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanish va sanoat sektorining yuqori darajada energiyatalabligi tufayli havoga issiqxona gazlarini chiqarish jadalligi bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinni va Yevropa va Markaziy Osiyoda eng yuqori o'rinni egallaydi.

2023-yilning qish davrida O'zbekistonda minglab odamlar anomal sovuq havo vaqtida qariyb ikki hafta davomida ishonchli energiya ta'minotisiz yashashga majbur bo'ldi. Energiya ta'minotidagi uzilishlar eskirib qolgan infratuzilmaning zaifligini va mavjud energiya tejoychi texnologiyalarning nomutanosibligini namoyon qildi. Mamlakatning ayrim hududlarida tabiiy gaz yoki elektr energiyasi kabi energiya manbalarining yetishmasligi sababli aholi o'z uylarini isitish uchun ko'mir yoqishga o'tdi. Bu, ayniqsa, havo sifati va issiqxona gazlari chiqindilarining to'planishi nuqtai nazaridan salbiy oqibatlariga olib keldi.[3]

Yildan yilga O‘zbekiston aholisining soni ko‘payishi bilan energiyaga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Pirovardida mamlakatning energiya zaxiralariga bo‘lgan ehtiyoji ortib borgan sari energiyaga o‘sib borayotgan talabni mamlakatning barqaror rivojlanishini, qayta tiklanadigan manbalar hisobidan qondirish zarur.

O‘zbekiston hukumati energiya zaxiralarini diversifikatsiya qilish maqsadida energetika sohasida islohotlarni amalga oshirmoqda. Birinchi qadamlardan biri sifatida investorlar uchun, xalqaro xususiy kompaniyalarga elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash uchun quyosh elektr stansiyalariga investitsiya kiritish imkonini beruvchi qulay muhit yaratildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so‘nggi uch yilda ushbu sohaga 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kiritilib, Navoiy va Samarqand viloyatlarida bir qancha quyosh elektr stansiyalari o‘rnatildi.

Yil oxirigacha umumiy quvvati 4300 megavattni tashkil etadigan quyosh va shamol elektr stansiyalarini o‘rnatish nazarda tutmoqda. Shuningdek, u 37 000 ta uying tom qismiga quyosh panellarini o‘rnatish va ularning har biri ortiqcha energiyani elektr tarmog‘iga qaytargan holda sotishi mumkinligi to‘g‘risidagi nizomlarni o‘z ichiga oladi. SHartlariga ko‘ra, davlat iste‘molchidan foydalanilmagan energiyani sotib oladi va shunda har bir foydalanilmagan kilovatt/soat uchun 1000 so‘mdan haq to‘laydi.

SHuningdek, yangi qurilgan ko‘p qavatli uylar tom qismi maydonining kamida yarmiga quyosh panellarini o‘rnatishga, 31 000 ta ko‘p qavatli uyni esa issiqlik izolatsiyasini yaxshilagan holda jihozlashga da‘vat qilmoqda. Bu islohotlar va harakatlar to‘g‘ri amalga oshirilishida O‘zbekistonga 2030-yilga borib YAIM birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yildagi darajaga nisbatan 35% ga kamaytirish maqsadiga erishishga yordam berishi kerak va bu haqda 2021-yildagi milliy darajada belgilanadigan yangilangan hissalarda (Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij kelishuvida) ta’kidlangan.

2000-yildan boshlab BMTTD milliy va xalqaro hamkorlar bilan birgalikda qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya samaradorligi masalalari ustida turli tomonlardan ish olib bormoqda. Hukumatning sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida BMTTD O‘zbekistonning iqtisodiy sektorlarini, jumladan, qurilish sektorini yashillashtirish bo‘yicha siyosiy harakatlarni kuchaytirish va standartlarni ishlab chiqish uchun texnik yordam ko‘rsatmoqda.[3]

Bir nechta modellar, jumladan, sog‘liqni saqlash muassasalari va maktablarda barqaror mahalliy energetik tejamkor materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda sinovdan o‘tkazildi. Endi esa ushbu modellarning tajribasidan foydalanish va ularni kengaytirish vaqti keldi.



Masalan, BMTTD bilan Global ekologik fond va Qurilish va uy-joy kommunal vazirligining qo‘shma dasturi turar joy binolari tashqi devorlari, pollari va tomlarining oqilona issiqlik izolatsiyasini ta‘minlash uchun hamyonbop zamonaviy texnologiyalar va qurilish materiallaridan foydalanishga ko‘maklashmoqda. “O‘zbekistonda barqaror qishloq uy-joyi uchun bozorni qayta tuzish” loyihasi davlat siyosati va harakatlarini asoslab berish uchun ilg‘or tajribalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

BMTTD bir qator tegishli qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish orqali turar joy binolarining energiya samaradorligiga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirish masalasida hukumatni qo‘llab-quvvatladi. Bu O‘zbekistonda 2020-yildan buyon turar joy binolarining energetik samaradorligining ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga olib keldi.

Bundan tashqari, BMTTD tomonidan turar joy sektorida qayta tiklanadigan energiya manbalarining afzalliklarini namoyon qilish maqsadida 2019–2020-yillarda 1328 ta turar joy binolarida quyosh panellari tizimlaridan foydalanish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshirildi. Quyosh panellarini joriy etishning bu tajribasi keyinchalik “Quyoshli uyi” davlat dasturi orqali yanada kengaytirilishi mumkin.[2]

Qayta tiklanadigan energiya manbalari va energetik jihatdan tejamkor qurilishni oddiy iste‘molchi uchun hamyonbop qilish maqsadida BMTTD imtiyozli moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqmoqda.

Amaliyot va ilg‘or tajribalarni olib kirish BMTTDning hukumatlarni qo‘llab-quvvatlashdagi asosiy qo‘shimcha qiymati bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, BMTTD tajriba hududlarida uy xo‘jaliklari darajasida energetik auditlarni o‘tkazish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot va tajribalar o‘tkazdi. Bunday auditlarning asosiy maqsadi energiya yo‘qotish joylarini aniqlash va uylarning energetik samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Aslida, energetik auditlarning afzalliklari energiyani tejash bilan cheklanib qolmaydi, chunki ular issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, uy xo‘jaliklariga elektr energiya uchun to‘lovlarni kamaytirishga hamda O‘zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Qishloq uy xo‘jaliklarida o‘tkaza olgan mazkur tajribaviy energetik auditining natijalari tez orada tayyor bo‘ladi va kelgusida mahalliy iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda qishloq uy-joy qurilishini oqionalashtirish bo‘yicha asosli tavsiyalar beradi, degan umiddamiz.

Bundan tashqari, BMTTD ko‘magida hukumat alohida e‘tibor binolar va turar-joy sektorlarida energiya samaradorligiga va IG (issiqxona gazlari) chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan bir qancha qurilish kodekslarini ishlab chiqdi va qabul qildi. Masalan, “passiv uy” konsepsiyasiga asoslangan energetik samaradorlik bo‘yicha qurilish standarti joriy etildi.

Ushbu yondashuv binoning ekologik izini kamaytirishga, uni qulay va, shu bilan birga, arzonlashtirishga imkon beradi. BMTTD bunday yondashuv bo'yicha huquqiy kodeks ishlab chiqilishiga o'z hissasini qo'shdi va bu kodeks O'zbekistonda standart yoki kelajakdagi qurilishga aylanishiga, uzoq muddatli foyda olish salohiyati tufayli aholi o'rtasida tez ommalashishiga ishonadi. Mazkur tashabbusning ro'yobga chiqarilishini ta'minlash uchun mahalliy mutaxassislarni barqaror izolyatsiyalash usullari bo'yicha o'qitishni tashkil etish zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish bir zumda sodir bo'ladigan jarayon emas, biroq O'zbekiston energetika sohasini barqaror rivojlantirish tarafdori ekani va uning kengayishiga xizmat qiladigan siyosatni olib borayotgani haqiqatdan ham ilhomlantiradigan holatdir. Uning tashabbuslari mamlakatning tabiiy zaxiralarini asrash va kelajak avlodlarning barqaror iqtisodiy kelajagini ta'minlashga va'da bermoqda. O'tmishda ko'plab eng ilg'or amaliyotlar va modellar sinab ko'rilgan, endi esa ularni kengaytirish vaqti keldi.[2,3]

O'zbekiston xalqi va hukumati barqaror rivojlanish yo'lidan olg'a intilayotgan ekan, biz BMTTD doirasida bilim va ilg'or tajriba bilan almashishni davom ettirish, qurilish tarmog'ini dekarbonizatsiya qilish strategiyasini qo'llab-quvvatlash hamda, hamma uchun yanada toza, yashil va farovon kelajakni ta'minlash maqsadida qayta tiklanadigan energiya manbalarini, shuningdek, barqaror rivojlanishga ko'maklashuvchi yashil moliyaviy mexanizmlarni ilgari surish majburiyatini zimmamizga olamiz.

### **Adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi "2017-2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3012 sonli qarori. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57 sonli qarori. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. S M Khuzhakulov1, T A Faiziev1, B G Sherkulov1, I.Murodov1, and Sh Y Samatova1. Analysis of scientific research conducted to improve the efficiency of solar concentrator systems. BIO Web of Conferences CIBTA-II-2023

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14501811>

## PARAMETRLI TENGLAMALARNI YORITISHDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Gulbahor O'ktamovna Abdullayeva**

Jizzax vil. Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Zarbdor tumani  
Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limiga qarashli 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Matematika-informatika fani o'qituvchisi  
[abdullayevagulbahor1@gmail.com](mailto:abdullayevagulbahor1@gmail.com)

### ANOTATSIYA

*Ushbu maqolada parametrli tenglamalarni yoritishda texnologiyalarning o'rni va ahamiyati muhokama qilinadi. Parametrli tenglamalar matematik va ilmiy tadqiqotlar sohasida keng qo'llanilib, tizimlar va jarayonlarni modellashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada MATLAB, Matematika, Pyton va boshqa matematik dasturlar yordamida parametrli tenglamalarni hal qilish va tahlil qilish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu texnologiyalarning ilmiy tadqiqotlar, muhandislik va optimizatsiya sohalarida qanday ishlatilishi va amaliyotda qanday yordam berishi haqida so'z yuritiladi. Parametrli tenglamalarni yechish va ularning o'zgarishlarini vizualizatsiya qilish imkoniyatlari ham yoritilib, texnologiyalarning matematik modellashtirish va haqiqiy tizimlarni tushunishdagi roli ko'rsatiladi.*

### **Kalit so'zlar**

*Parametrli tenglamalar, matematik modellashtirish, texnologiyalar, MATLAB, Mathematica, Python, kompyuter algebraik tizimlar, numerik yechimlar, optimizatsiya, ilmiy tadqiqotlar, grafik vizualizatsiya, muhandislik, simulyatsiya, parametr o'zgarishi, yechimlarni tahlil qilish.*

### ABSTRACT

*This article discusses the role and importance of technologies in solving parametric equations. Parametric equations are widely used in mathematics and scientific research, serving as an important tool in modeling systems and processes. The article explores methods for solving and analyzing parametric equations using mathematical software such as MATLAB, Mathematica, Python, and others. It also discusses how these technologies are applied in scientific research, engineering, and optimization, and how they contribute to practical applications. The possibilities of*

*solving parametric equations and visualizing their changes are also highlighted, demonstrating the role of these technologies in mathematical modeling and understanding real-world systems.*

### **Keywords**

*Parametric equations, mathematical modeling, technologies, MATLAB, Mathematica, Python, computer algebra systems, numerical solutions, optimization, scientific research, graphical visualization, engineering, simulation, parameter variation, solution analysis.*

**KIRISH.** Matematika va ilmiy tadqiqotlar sohasida parametrlil tenglamalar keng tarqalgan vosita hisoblanadi. Bu tenglamalar o'zgaruvchi va parametrlarning o'zaro bog'lanishini ifodalaydi, bu esa ularni turli holatlarda o'rganishga va yechimlar topishga yordam beradi. Parametrlil tenglamalarni yoritishda texnologiyalardan foydalanish esa bu jarayonni ancha osonlashtiradi. Ushbu maqolada parametrlil tenglamalarni hal qilishda ishlatiladigan texnologiyalar, ular qanday ishlashi va amaliyotda qanday yordam berishi haqida so'z yuritamiz.

**Parametrlil tenglamalar nima?** Parametrlil tenglama — bu o'zgaruvchi bir yoki bir nechta parametrga bog'liq bo'lgan tenglamadir. Masalan, bir o'zgaruvchilil parametrlil tenglama quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

$$y=f(x,p)$$

Bu yerda  $x$  — o'zgaruvchi,  $p$  — parametr bo'lib, tenglama  $x$  va  $p$  ni ifodalovchi funksiya sifatida ifodalanadi. Parametrlil ko'pincha tajriba yoki nazariy modelga asoslanadi va ularni o'zgartirish orqali modelni turli holatlarda tahlil qilish mumkin.

**Parametrlil tenglamalarni hal qilishda texnologiyalar.** Texnologiyalar yordamida parametrlil tenglamalarni hal qilish va tahlil qilish bir qancha yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Quyidagi texnologiyalar keng tarqalgan:

**Matematik dasturiy ta'minotlar (MATLAB, Matematika, Maple)**  
Bu dasturlar parametrlil tenglamalarni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular matematik formulalarni simulyatsiya qilish va yechimlarni aniqlashda foydalaniladi. Masalan, MATLABda parametrlil tenglamalarni aniqlash va ularning grafigini yaratish mumkin. Quyidagi misolni keltirish mumkin:

Matlab: `syms x p`

`y = x^2 + p*x;`

`fplot(@(x) x^2 + 2*x, [-10, 10])`

**Kompyuter algebraik tizimlari (CAS).** CAS texnologiyalari, masalan, Mathematica va Maple, parametrli tenglamalarni simvolik tarzda hal qilish imkonini beradi. Ular oddiy algebraik manipulyatsiyalarni amalga oshiradi va parametrlarni o'zgartirish orqali yechimlar o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, bu tizimlar integral, differensial tenglamalar kabi murakkab masalalarni ham hal qilishda ishlatiladi.

**Python va SciPy kutubxonasi.** Pythonning matematik kutubxonalari (NumPy, SciPy) parametrli tenglamalarni hal qilish uchun juda qulay. NumPy massivlar bilan ishlash imkoniyatini beradi, SciPy esa optimizatsiya va numerik yechimlar uchun mo'ljallangan. Misol uchun, parametrli tenglamalarni Python orqali yechish uchun quyidagicha kod yozish mumkin:

```
import numpy as np
import scipy.optimize as opt
def equation(x, p):
    return x**2 + p*x - 10
# p parametri uchun yechim topish
p_value = opt.fsolve(equation, 1, args=(2))
print(p_value)
```

Bu kodda parametr  $p=2$  bo'lganda tenglama yechimi topiladi.

**Grafik vizualizatsiya.** Parametrli tenglamalarni yoritishda grafik vositalardan foydalanish ham muhim. Ular yechimlarning o'zgarishini va parametrlar o'rtasidagi bog'liqlikni vizual tarzda ko'rsatadi. Ko'pgina dasturlar va kutubxonalar (masalan, Pythonning Matplotlib yoki MATLABning fplot funksiyasi) tenglamalarni chizish va parametrlarning ta'sirini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Bu, ayniqsa, parametrli tenglamalar murakkab bo'lganda va bir nechta yechimga ega bo'lganda foydalidir.

## AMALIY TADQIQOTLARDA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI.

### Ilmiy tadqiqotlar va matematik modellashtirish.

Parametrli tenglamalar ko'plab ilmiy sohalarda, jumladan, fizika, kimyo, iqtisodiyot, va muhandislikda qo'llaniladi. Masalan, ekologik tizimlar yoki iqlim o'zgarishi modellarini qurishda parametrli tenglamalar yordamida turli parametrlar o'zgariganda tizimning qanday reaksiya berishini ko'rish mumkin. Texnologiyalarning yordamida

parametrlarni aniqlash, o'zgarishlarni simulyatsiya qilish va kelajakdagi natijalarni prognoz qilish mumkin bo'ladi.

**Muhandislik va optimizatsiya.** Parametrli tenglamalar muhandislikdagi ko'plab masalalarda ham qo'llaniladi. Masalan, struktura va materiallar mexanikasi, energiya tizimlari va avtomatik nazoratda parametrli modellar yordamida tizimlarning optimalligi tahlil qilinadi. Dasturiy ta'minotlar yordamida yechimlar va optimal parametrlar o'rganiladi, bu esa ko'plab amaliy vazifalarni soddalashtiradi.

**XULOSA.** Parametrli tenglamalarni hal qilishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan matematik dasturlar, kompyuter algebraik tizimlar va Python kutubxonalari, ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar uchun muhim yordam beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida parametrli tenglamalarni yechish jarayoni sezilarli darajada soddalashadi, bu esa samarali va aniq yechimlarni tez va oson topishga imkon beradi. Masalan, MATLAB, Matematika va Python kabi dasturlar yordamida tizimlar va jarayonlarni modellashtirishda matematik modellarni tahlil qilish, optimizatsiya qilish va o'zgarishlarini vizualizatsiya qilish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, texnologiyalarning grafik vizualizatsiya vositalari yordamida parametrli tenglamalarning yechimlarini va ularning o'zgarishini vizual tarzda ko'rish, murakkab tizimlar va jarayonlarning yanada aniqroq va osonroq tushunilishiga yordam beradi. Bu, ayniqsa, real hayotdagi masalalarni modellashtirishda, masalan, fizika, muhandislik, iqtisodiyot va biologiya kabi sohalarda juda foydalidir. Shuningdek, bu texnologiyalar nafaqat matematik modellarni aniq tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi, balki ularni real tizimlarga tatbiq etishda va amaliy muammolarni hal qilishda ham muhim yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlarda va amaliyotda texnologiyalarning qo'llanilishi metodlarni yanada samarali va tezkor amalga oshirishga yordam beradi, bu esa murakkab jarayonlar va tizimlarni tushunishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Umuman olganda, parametrli tenglamalarni hal qilishda texnologiyalarning roli faqat matematik modellashtirishda emas, balki real tizimlarni tushunishda va optimallashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirib, real dunyo masalalarini yechishda keng imkoniyatlar yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. “Mathematical Methods for Physics and Engineering” Muallif: K. F. Riley, M. P. Hobson, S. J. Bence Nashr etilgan yili: 2006 Nashriyot: Cambridge University Press (Ushbu kitobda matematik metodlar, shu jumladan parametrli tenglamalar va ularning amaliy yechimlari batafsil yoritilgan.)

2. “Applied Numerical Methods with MATLAB for Engineers and Scientists” Muallif: Steven C. Chapra. Nashr etilgan yili: 2011. Nashriyot: McGraw-Hill Education (Bu kitobda MATLAB dasturi yordamida matematik muammolarni, shu jumladan parametrli tenglamalarni hal qilish usullari va ularning dasturiy ta’minot bilan yechimi ko’rsatilgan.)

3. “Introduction to Applied Mathematics”. Muallif: Gilbert Strang Nashr etilgan yili: 1986 Nashriyot: Wellesley-Cambridge Press (Bu kitobda matematik modellashtirish va parametrli tenglamalar, ularni yechish usullari va amaliy qo’llanilishi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.)

4. “Computational Mathematics” Muallif: J. R. Magnusson, J. G. Moser Nashr etilgan yili: 2018 Nashriyot: Wiley (Kitobda parametrli tenglamalar va ularning kompyuter yordamida yechilishi, shuningdek, texnologiyalarning matematik modellarda qo’llanilishi haqida gapirilgan.)

5. “Python for Data Analysis” Muallif: Wes McKinney Nashr etilgan yili: 2017 Nashriyot: O’Reilly Media (Ushbu kitob Python dasturi yordamida parametrli tenglamalar va ularning analitik va raqamli yechimlarini topish usullarini o’rganishga yordam beradi.)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14501819>

## BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA TEXNOLOGIYA VOSITALARINING AHAMIYATI

**Dilfuza Sherzodbek qizi Muhammadjonova**

Andijon davlat universiteti magistranti

[mukhammadjonovadilfuza@gmail.com](mailto:mukhammadjonovadilfuza@gmail.com)

**Madinaxon Akramjonovna Xolmirzayeva**

Andijon davlat universiteti

Biologiya fanlari bo‘yicha falsata doktori,

### ANNOTATSIYA.

*Mazkur mavzu zamonaviy texnologiyalarning bog‘cha yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta‘sirlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Jismoniy faoliyat bolalarning umumiy salomatligi, mushak va suyak tizimining rivojlanishi hamda motorika qobiliyatlarini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Texnologiyalar, xususan, interaktiv o‘yinlar va raqamli platformalar, bolalarning jismoniy faolligini rag‘batlantiruvchi vositalar sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, raqamli sport o‘yinlari bolalarni harakatga jalb qilishga xizmat qiladi.*

*Biroq, texnologiyalarning haddan tashqari qo‘llanilishi kamharakatlik, postural muammolar va ko‘rish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Maqolada bu mavzuga oid ilg‘or tajribalar, innovatsion yechimlar hamda ota-onalar va pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar haqida fikr yuritiladi. Umuman olganda, texnologiyani bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun muvozanatli va maqsadli qo‘llash zarurligi ta‘kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** bolalar, jismoniy rivojlanish, texnologiya vositalari, bog‘cha yoshi, interaktiv o‘yinlar, harakat faoliyati, sog‘lom turmush tarzi.

### АННОТАЦИЯ

*Данная тема включает изучение положительных и отрицательных воздействий современных технологий на физическое развитие детей дошкольного возраста. Физическая активность имеет важное значение для общего здоровья детей, развития их мышечной и костной систем, а также формирования моторных навыков. Технологии, в частности интерактивные игры и цифровые платформы, могут служить инструментами для стимулирования физической активности среди детей. Например, цифровые спортивные игры способствуют вовлечению детей в подвижные занятия.*



Однако чрезмерное использование технологий может привести к недостатку физической активности, проблемам с осанкой и ухудшению зрения. В статье также рассматриваются передовой опыт, инновационные решения и практические рекомендации для родителей и педагогов. В целом подчеркивается важность сбалансированного и целенаправленного использования технологий для поддержки физического развития детей.

**Ключевые слова:** дети, физическое развитие, технологические средства, дошкольный возраст, интерактивные игры, двигательная активность, здоровый образ жизни.

### ABSTRACT

*This topic explores the positive and negative impacts of modern technologies on the physical development of preschool-aged children. Physical activity is essential for children's overall health, the development of their muscular and skeletal systems, and the formation of motor skills. Technologies, particularly interactive games and digital platforms, can serve as tools to encourage physical activity among children. For instance, digital sports games can engage children in movement-based activities.*

*However, excessive use of technology can lead to physical inactivity, postural problems, and a decline in vision. The article also discusses advanced practices, innovative solutions, and practical recommendations for parents and educators. Overall, it emphasizes the importance of using technology in a balanced and purposeful way to support children's physical development.*

**Keywords:** children, physical development, technological tools, preschool age, interactive games, motor activity, healthy lifestyle.

**KIRISH.** Bog'cha yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanishi — bu bolaning sog'lig'ini saqlash, harakat va motorika ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhim davr. Ushbu yoshda bolalar nafaqat jismoniy faollikni oshiradilar, balki yangi bilimlarni o'zlashtirishni ham boshlaydilar. Bugungi kunda texnologiyalar jismoniy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, turli o'yinlar, interaktiv dasturlar va sport texnologiyalari yordamida bolalarning motorika ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Texnologiyalarning bolalarning jismoniy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish bugungi kunda jismoniy faollik va harakat ko'nikmalarini yaxshilashga qaratilgan muhim masalalardan biridir. Yosh bolalarda texnologiya vositalarining o'ri zamonaviy tarbiya va ta'limda alohida ahamiyatga ega. Texnologiyalar bolalarning bilim olish, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ammo, salbiy ta'sirlarning oldini olish uchun ulardan to'g'ri foydalanish muhimdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

**Sogʻliqni saqlash boʻyicha tashkilotlar tomonidan tavsiyalar.** Oʻzbekistonda bolalar uchun jismoniy faollikni ragʻbatlantirishga qaratilgan sogʻliqni saqlash dasturlari mavjud. Bu dasturlarni texnologiyalar bilan uygʻunlashtirish bolalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining (WHO) bolalar uchun ekran vaqti boʻyicha tavsiyalari mavjud. Bu tavsiyalarga koʻra, 2 yoshgacha boʻlgan bolalarga ekran vaqtini umuman taqiqlash, 2-5 yoshdagi bolalar uchun esa kuniga 1 soatdan ortiq vaqt sarflamaslik tavsiya qilinadi.

**Taʼlim tizimi standartlari:** Bolalar taʼlim tizimida jismoniy faoliyat va texnologiyalardan foydalanishning kombinatsiyasi uchun qonuniy asoslar mavjud. Bu oʻquv dasturlari bolalarning jismoniy rivojlanishiga hissa qoʻshadi.

Texnologiyaning ijobiy jihatlari sifatida oʻquv dasturlari, interaktiv oʻyinlar va ilovalar orqali bolalar koʻnikmalarini rivojlantirishi mumkin. Multimedial vositalar (videolar, audio darslar) bolalarga mavzularni osonroq tushunishga yordam beradi. Bogʻcha yoshidagi bolalarda multimedial vositalarning oʻrni tarbiya va taʼlim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalar oʻyin va interaktiv yondashuv orqali bolalarning qiziqishini oshirish, bilimlarini kengaytirish va koʻnikmalarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ularni toʻgʻri va meʼyorda qoʻllash zarur, chunki bolalarning yoshiga mos kelmagan yoki ulardan ortiqcha foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Multimedial vositalarning ijobiy tomonlari mavjud bularga misol qilib quyidagilarni kelitirish maqsadga muvofiq deb bildim.

**Taʼlimiy rivojlanish.** Interaktiv darsliklar, taʼlimiy oʻyinlar va videolar orqali oʻquv jarayonini qiziqarli va samarali qilish. Ranglar, tovushlar va harakatlar yordamida yangi tushunchalarni oson oʻzlashtirishga yordam beradi.

**Ijodkorlikni rivojlantirish.** Rasm chizish, mozaikalar yaratish yoki musiqa bastalash kabi dasturlar bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi. Grafik dizayn va rasm chizish ilovalari orqali ijodiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Oʻyin orqali oʻqitish (gamifikatsiya) bolalarni faollikka undaydi.

**Eshitish va koʻrish qobiliyatlarini rivojlantirish.** Multimedial ertaklar va audiokitoblar eshitish qobiliyatini oshiradi. Rangli animatsiyalar va grafikalar diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**Til va muloqot koʻnikmalarini oshirish:** Multimedial vositalar orqali xorijiy tillarni oʻrganish yoki ona tilini rivojlantirish. Oʻyinlar va dasturlar orqali bolalar muloqot qilish va fikrlashni oʻrganadilar.

Ammo, har bir narsani yaxshi va yomon tomoni boʻlgani kabi Multimedial vositalardan foydalanishning salbiy jihatlari mavjud bular:

**Cheksiz foydalanish xavfi:** Bolalar haddan tashqari ko‘p vaqtni ekran oldida o‘tkazsa, bu ularning sog‘lig‘iga (masalan, ko‘z charchashi) va psixologik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Harakatsizlik tufayli jismoniy faollik kamayadi. Noto‘g‘ri yoki yoshga mos kelmaydigan kontent bolalarning ma‘naviy va intellektual rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin. Zo‘ravonlik yoki haddan tashqari raqobatni targ‘ib qiluvchi o‘yinlar bolaning ruhiyatiga ta‘sir qiladi.

**Real dunyo bilan aloqaning kamayishi.** Multimediali vositalarga haddan tashqari bog‘lanish ijtimoiy ko‘nikmalarning sustlashishiga olib kelishi mumkin. Oila va tengdoshlari bilan muloqotning kamayishi kuzatiladi.

### MUHOKAMA

**Tavsiya va yondashuvlar.** Bog‘cha yoshidagi bolalar uchun ekran qarshisida bo‘lish vaqti kuniga 1 soatdan oshmasligi kerak. Texnologiyadan foydalanish jismoniy faollik va boshqa faoliyatlar bilan muvozanatlashishi zarur. Bolalar foydalanadigan multimediali vositalarni tanlashda ota-onalar va tarbiyachilarning e‘tibori katta ahamiyatga ega. Yoshga mos va ta‘limiy qiymatga ega bo‘lgan dasturlarni tanlash kerak. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalar bilan birgalikda multimediali vositalardan foydalanishi, ularning fikrini tinglashi va faol muloqot qilishlari muhim. Texnologiyadan nafaqat o‘yin, balki ta‘limiy vosita sifatida foydalanishga undash ulardagi salbiy oqibatlarini oldini olishga yordam berishi mumkin.

Bolalar uchun texnologiyalar yordamida jismoniy mashqlarni qiziqarli qilish, masalan, raqsn o‘rgatish dasturlari, virtual sport o‘yinlari, yoki interaktiv treninglar bolalarning jismoniy faolligini oshiradi. Texnologiyalar yordamida bolalarni ochiq havoda jismoniy faollik bilan shug‘ullanishga undash, masalan, virtual tabiat turlari yoki sport o‘yinlarini tashkil etish orqali. Multimediali vositalar bog‘cha yoshidagi bolalar uchun qiziqarli va ta‘limiy muhit yaratish imkonini beradi. Ular bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, lekin ular me‘yorida va nazorat ostida ishlatilishi kerak. Shuningdek, real hayotdagi o‘yinlar va muloqot texnologiyaga muqobil sifatida qo‘llanishi lozim.

**XULOSA.** Bog‘cha yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida texnologiya to‘g‘ri va me‘yorida qo‘llanilsa, foydali bo‘lishi mumkin. Interaktiv o‘yinlar va ta‘limiy dasturlar bolalarning koordinatsiya, diqqatni jamlash va motorik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiya bolalarning jismoniy faolligini pasaytirishi yoki sog‘liq muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun texnologiyadan foydalanish vaqtini cheklash, uni bolalarning yoshiga mos tarzda tanlash va jismoniy mashqlar bilan muvozanatlash muhimdir. Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilar texnologiyani faqat qo‘shimcha vosita sifatida ko‘rib, asosiy e‘tiborni bolalarning tabiiy harakatlari va real hayotdagi o‘yinlariga qaratishlari lozim. Bu yondashuv bolalarning sog‘lom va har tomonlama

rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Texnologiyaning bog'cha yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanishiga ta'siri haqida gapiradigan bo'lsak, uning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish zarur. Ijobiy ta'sirlar sifatida texnologiyalarning bolalarga harakatlarni rivojlantirish, motorik ko'nikmalarni o'zlashtirish va jismoniy faollikni oshirishdagi roli muhimdir. Biroq, ortiqcha ekran vaqti va texnologiyalarning noto'g'ri ishlatilishi bolalarning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, texnologiyalarni bolalar ta'limida samarali va muvozanatli tarzda qo'llash zarur. Texnologiyaning jismoniy rivojlanishga ta'siri haqida yanada kengroq va chuqurroq tadqiqotlar olib borilishi kerak, bu esa bolalar uchun eng samarali o'qitish usullarini yaratishga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim tizimida texnologiyalarni jismoniy rivojlanish bilan birgalikda integratsiya qilish zarurligi aniqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov A. (2015). *Bolalar jismoniy tarbiyasi va sog'lom turmush tarzi*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Karimova G. (2018). *Bog'cha yoshidagi bolalar rivojlanishi: psixologik va jismoniy jihatlar*. Toshkent: Fan.
3. Montessori M. (1995). *The Absorbent Mind*. New York: Dell Publishing.
4. Qodirov S. (2020). *Texnologiyalar va ta'lim: imkoniyatlar va xavf-xatarlar*. Samarqand.

#### Jurnallar

1. American Academy of Pediatrics (AAP). (2016). *Media and Young Minds*. Pediatrics Journal.
2. Gonzalez, M. A. (2021). *Technological Innovations in Early Childhood Physical Development*. *Journal of Early Childhood Education Technology*, 14(3), 123-138.
3. Harrison, K., & Brown, D. (2022). *Technology's Role in Physical Development in Early Education*. *Child Development Perspectives*, 16(1), 50-58.
4. Jensen, B. (2020). *Physical Activity and Technology in Early Childhood*. *Journal of Child Health and Physical Activity*, 5(2), 75-89.
5. Miller, T. (2018). *Effects of Digital Games on Preschoolers' Physical Development*. *Early Childhood Education Journal*, 46(1), 23-33.
6. Peterson, R. L., & Smith, P. (2019). *Impact of Interactive Games on Preschool Children's Motor Skills*. *Early Childhood Development and Care*, 20(4), 245-259.

#### Veb-saytlar

1. *O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi materiallari*. [www.mdo.uz](http://www.mdo.uz).
2. World Health Organization (WHO). (2019). *Guidelines on Physical Activity, Sedentary Behaviour and Sleep for Children under 5 Years of Age*. Geneva: WHO.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14501832>

## APIS (APIDAE) OILASIGA MANSUB HASHAROTLARNING O'RGANILISHIGA OID

**Turg'unboyeva M. A.,  
Baltabayev A.S.,  
Omonov Sh.N.**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Email: [muattar795@gmail.com](mailto:muattar795@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada asalarilarning kelib chiqish tarixi, arisimonlar haqidagi olimlarning dastlabki kuzatish va tadqiqotlari haqidagi ma'lumotlar to'g'risida so'z boradi. Apis, ya'ni asalarilar turkumi vakillarining Yer yuzi bo'ylab tarqalishi, ularning biologiyasi, ekologiyasi va faunasi yuzasidan turli kuzatish va eksperimental tadqiqot usullaridan foydalangan holda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** koloniya, changlatish, chang, asalarichilik, o'z-o'zini boshqarish, changlatuvchi, omil, ijtimoiy xulq, fauna, biologiya, ekologiya.

## ON THE STUDY OF INSECTS BELONGING TO THE FAMILY APIS (APIDAE)

### ABSTRACT

*The article discusses the history of the origin of bees, early observations, and research by scientists about bees. It describes the distribution of representatives of the genus Apis across the Earth, their biology, ecology, and fauna, as well as scientific studies, using various observational and experimental research methods.*

**Keywords:** colony, pollination, pollen, beekeeping, self-regulation, pollinator, social behavior factor, fauna, biologiya, ekologiya.

**KIRISH.** Asalarichilik bo'yicha eng qadimgi dalillar miloddan avvalgi 2472-2444 yillarga tegishli bo'lib, Misrning qadimgi shohlik davrining beshinchi sulolasidan bo'lmish Fir'avnning Quyosh ibodatxonasidan topilgan. Asalarilar (Apis) Apidae oilasiga kiruvchi turkum bo'lib, eng qadimgi hasharotlar sirasiga kiradi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Gretsiyada asalarilar va asal juda qadrlangan bo'lib,

ularning rasmlari va yozuvlari turli manbalarda uchraydi. Ma'lum bo'lishicha, asalarichilik, dastavval faqat Osiyo, Afrika va Yevropada tarqalgan. Taraqqiyotning va fanning boshqa sohalari kabi asalarichilik ham XVI asrdan boshlab jadal rivojlana boshlagan. (Jamolov, R. Abduvaliyev, B. Ma'murova, Z., 2022). Miloddan avvalgi 2400-yillar atrofida Misrda asalarichilik bilan shug'ullanishgan. Mesopotamiya xalqining ham asalarilar va asal haqidagi dastlabki ma'lumotlari mavjud. Hindiston madaniyatida "Rigveda" va "Atharvaveda" kabi qadimgi hind matnlarida ham asaldan shifobaxsh mahsulot sifatida foydalanish haqida ma'lumotlar mavjud. Yunon faylasuflari, xususan, Aristotel asalarilar haqidagi dastlabki ilmiy manbalarni qoldirgan. Aristotel asalarilarning ijtimoiy tuzilishini, ularning hayotiy jarayonlarini o'rgangan va asalarilar oilasini boshqaradigan "qirolicha" ni tasvirlagan. Asalarilar va asal haqidagi bu kabi dastlabki ma'lumotlar turli xalqlarning madaniyati va ilmiy tushunchalariga ta'sir ko'rsatib, keyinchalik asalarichilik rivojlanishiga asosiy poydevor bo'lgan. Asalarichilik – qishloq xo'jaligining eng qadimgi tarmoqlaridan biri. Buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino asalari mahsulotlaridan 500, Abu Rayhon Beruniy 300 turdagi dori-darmon tayyorlagani haqida ma'lumotlar bor. (Pulatov, 2013)

Bugungi kunda asalarichilik qishloq xo'jaligida yetakchi sohalardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish Apis oilasi haqidagi barcha nazariy bilimlarni egallash va uni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida asalarilarni boqish va parvarish qilish uchun an'anaviy usullardan foydalanib kelinadi, ammo so'nggi yillarda texnologik kashfiyotlar va yangiliklar ushbu sohani ham cheklab o'tmagan holda asalarilar parvarishining yangicha yondashuvlarini yaratishga imkon bermoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Quyida asalarilarni umumiy holatda rivojlanishi kuzatish uchun qo'llanadigan bir nechta ilmiy tadqiqot metodlarini keltirib o'tamiz.

*Maydon usuli:* asalarilarni ularning tabiiy yashash muhitida kuzatish va o'rganish usuli. Bu metod orqali asalarilarning changlatish faoliyati, oziq-ovqat manbalari va iqlim sharoitlariga bo'lgan munosabatlari o'rganiladi. Markaziy Osiyo sharoitida bu usul asalarilarning mahalliy o'simlik turlarini changlatishdagi rolini aniqlashda ishlatiladi.

*Laboratoriya usuli:* asalarilarni nazorat ostida laboratoriya sharoitida o'rganish, masalan, ularning xulq-atvori, fiziologiyasi va genetikasi bo'yicha tajribalar o'tkaziladi. Bu usul yordamida arilarning o'zaro muloqot usullari va shuningdek, pestitsidlarning ularga ta'siri o'rganiladi.

*Genetik usul:* genetik tadqiqotlar orqali asalarilar populyatsiyasi ichidagi genetik xilma-xillik, o'ziga xos genetik xususiyatlar va ularning boshqa asalari turlari bilan

**Platform-as-a-Service (PaaS)** — bu bulutli hisoblash modeli bo'lib, unda foydalanuvchilarga dastur ishlab chiqish va ishga tushirish uchun kerakli platformalar, vositalar va xizmatlar taqdim etiladi. Bu modelda foydalanuvchilar infratuzilmani boshqarish zaruratisiz o'z dasturlarini ishlab chiqishi va boshqarishi mumkin.

**Software-as-a-Service (SaaS)** — bulutli hisoblashning bir modeli bo'lib, foydalanuvchilarga dasturiy ta'minot va xizmatlardan internet orqali foydalanish imkonini beradi. Ushbu xizmatdan foydalanish uchun dasturlarni o'rnatish yoki infratuzilmani boshqarish talab qilinmaydi.

**Amazon Elastic Compute Cloud (EC2)** — Amazon Web Services (AWS) tomonidan taqdim etiladigan xizmat bo'lib, bu foydalanuvchilarga bulutda virtual

serverlarni (EC2 instansiyalarini) ijaraga olish imkoniyatini beradi. EC2 ko‘pincha IaaS xizmatiga yaqin, ammo u PaaS muhitida ham keng foydalaniladi.

**Google Apps (hozirgi nomi Google Workspace)** — bu Google tomonidan taqdim etiladigan ofis va hamkorlik xizmatlarining to‘plami. U foydalanuvchilarga veb-illovalar orqali ish yuritish imkonini beradi.

**Microsoft Azure** — bu Microsoft tomonidan taqdim etiladigan bulutli hisoblash platformasi bo‘lib, dasturiy ta‘minot yaratish va boshqarish uchun xizmatlarni taqdim etadi.

### Xulosa

Bulutli texnologiyalar biznes jarayonlarini optimallashtirish, ma‘lumotlarni boshqarish va yangi xizmatlarni yaratishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar bilan ishlash strategik yondashuvni talab qiladi va kelajakda ularning ahamiyati yanada ortadi. Bulutli texnologiyalar bugungi kunda biznes va shaxsiy ehtiyojlar uchun ajralmas vositaga aylanib bormoqda. Biroq, xavfsizlik va maxfiylik muammolari hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bulutli texnologiyalar zamonaviy raqamli infratuzilmaning ajralmas qismiga aylangan. Ular biznes va shaxsiy ehtiyojlar uchun moslashuvchan, tejamkor va samarali echimlarni taqdim etsa-da, ma‘lumot xavfsizligi va provayderlarga bog‘liqlik masalalariga jiddiy e‘tibor qaratilishi lozim. Yaxshi rejalashtirilgan o‘tish jarayoni va xavfsizlik choralari ko‘rish orqali bu texnologiyalardan to‘liq foyda olish mumkin. Amazon EC2, Google Apps va Microsoft Azure kabi platformalar foydalanuvchilarga yuqori moslashuvchanlik, qulaylik va xavfsizlik taqdim etadi. PaaS modeli dastur ishlab chiqaruvchilar va korporativ muhitlar uchun muhim infratuzilmaga aylangan. Software-as-a-Service (SaaS) bulutli arxitekturasi dasturiy ta‘minotni boshqarish va ulardan foydalanish jarayonini soddalashtiradi. Qo‘llash sohalari kengligi tufayli bu model turli darajadagi foydalanuvchilar va tashkilotlar uchun mos keladi. Amazon EC2 kabi platformalar esa SaaS dasturlarini yaratishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. D. E. To‘lqinov. “Bulutli texnologiyalar”. O‘quv qo‘llanma. 5350400-AKT sohasida kasb ta‘limi bakalavriat ta‘limi yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. Toshkent-2020.
2. Джордж Риз.Облачные вычисления: Пер. с англ.-СПб.: БХВ- Петербург, 2011.-288 с.: .ИСБН 978-5-9775-0630-4
3. Костюк, А.И. Организация облачных и GRID-вычислений: учеб. пособие / А.И. Костюк; Южный федеральный университет.-Ростов-на-Дону; Таганрог: Издательство Южного федерального университета, 2018. - 121с.
4. Mell, P., & Grance, T. (2011). The NIST Definition of Cloud Computing.
5. Amazon Web Services (AWS) dokumentatsiyasi.
6. Microsoft Azure texnik hujjatlari.
7. "Cloud Computing" - IEEE jurnal maqolalari.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14501936>

## AMUDARYO BOTIQLIGINING SHIMOLIY-SHARQIY QISMINING TEKTONIK RIVOJLANISH TARIXI

**Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Qarshi shahar, O‘zbekiston

E-mail: [axmedov-x-68@mail.ru](mailto:axmedov-x-68@mail.ru)

*Annotatsiya.* Maqolada Amudaryo botiqligining shimoliy sharqiysmi asosan Buxoro-Xiva neftgazli regioning tektonik elementlari yoritilgan. Buxoro-Xiva neftgazli oblastining asosiy tuzilmali elementlari bo‘lgan Buxoro va Chorji pog‘onalarining o‘lchami, ularning tarkibidagi tektonik elementlar va ularning neftgazlilik bayon qidingan.

Shuningdek maqolada Gugurtli-Uchqir ko‘tarilmasi va Qulbeshkak tuzilmalarida o‘tkazilgan tadqiqot ishlari keltirilgan.

**Tayanch iboralar.** Amudaryo botiqligi, Pitnyak tuzilma, Buxoro pog‘onasi, mezozoy yotqiziqlari, Chorji pog‘onasi, Qorail-Lyangar, Uchbosh-Qarshi, fleksura.

## HISTORY OF TECTONIC DEVELOPMENT OF THE NORTH- EASTERN PART OF THE AMUDARYA BASIN

**Axmedov Xolxo‘ja Rahmatullayevich**

E-mail: [axmedov-x-68@mail.ru](mailto:axmedov-x-68@mail.ru)

Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** The article covers the tectonic elements of the Bukhara-Khiva oil and gas region in the northeastern part of the Amudarya basin. The size of the Bukhara and Chorji ridges, which are the main structural elements of the Bukhara-Khiva oil and gas region, their tectonic elements, and their oil and gas content have been described.

The article also presents the research work carried out in Gugurtli-Uchqir rise and Kulbeshkak formations.

**Basic phrases.** Amudarya depression, Pitnyak structure, Bukhara step, Mesozoic deposits, Chorji step, Karail-Lyangar, Uchbosh-Karshi, flexure.



**KIRISH.** Amudaryo botiqligining shimoliy-sharqiy qismi paleozoy fundamentining pog‘ansimon cho‘kkan zonasidan, shuningdek mezozoy yotqiziqlaridan iborat bo‘lib, fundamentdan shimolda Qizilqum paleozoy massivi, Janubiy yo‘nalishda regional uzilmalar seriyasi bilan murakkablashgan.

Amudaryo botiqligining ko‘riladigan qismida shimoliy-sharqdan janubiy – g‘arb tomon Qarshi-uchbosh va Amudaryo feluksura-uzilmalari bilan bo‘lingan Buxoro, Chordjou va Bagadjin pog‘onalari ajraladi. Bu tektonik pog‘onalarga Burg‘ulash va geofizik tadqiqotlar ma‘lumotlari bo‘yicha paleozoy fundamentining yirik do‘ngliklari ajratilgan va bu do‘ngliklarni egekliklar bo‘lib turadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Buxoro-Xiva neftgazli oblasti boshqa neftgazli regionlar bilan solishtirganda eng keng region bo‘lib, yirik Amudaryo botiqligining shimoliy-sharqiy qanoti hisoblanadi va to‘g‘ri burchakli uchburchak shakliga ega, yuqori qismi Pitnyak tuzilma guruhiga to‘g‘ri keladi. Uning hududiga yirik gaz va gazokondensat konlari aniqlangan.

Buxoro va Chorji tektonik pog‘onalari Buxoro-Xiva neftgazli oblastining asosiy tuzilmali elementlariga hisoblanadi, o‘z novbatida bu tektonik elementlar turli vallar, ko‘tarilmalar va egekliklar bilan murakkablashgan.

Chorji pog‘onasi shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishga cho‘zilgan uchburchak shakliga ega bo‘lib, uchta fleksura-uzilmali zonalar bilan chegaralangan: bular Uchbosh-Qarshi, Amudaryo va Qorail-Lyangar uzilmali zonalar. Uchbosh-Qarshi va Amudaryo fleksura-uzilmali zonalarni birlashtirsa uzunligi 500km, uni janubiy-sharqiy qismga 110 km o‘lchamdagi berk pog‘ona hosil qiladi. Asosi 2,5-6,5 km chuqurlikda yotadi. Barcha mezozoy yotqiziqlarining qalinligi Buxoro pog‘onasi bilan solishtirilganda yura yotqiziqlari 2000 metrga oshadi, qirqimida kimeridj-titon evaporit qavatini mavjud, bo‘r yotqiziqlari 1900 metrgacha oshadi. Kaynazoy hosilalari kesimi Buxoro pog‘onasidan farq qilmaydi.

Chorji pog‘onasining shimoliy-g‘arbiy qismida Gugurtli-Uchqir ko‘tarilmasi joylashgan bo‘lib, janubdan shimolga 200 km oraliqda cho‘zilgan, uni 15 km. Bu ko‘tarilma turli tomonlarga 2 ta zvenodan tashkil topgan uzilma bo‘yi tuzilmadan iborat va Amudaryo fleksurna-uzilmali zona holati bilan aniqlanadi va uzilma kengligi tomon o‘sadi. Uzilma oldi burmalar katta amplitudaga ega bo‘lgan uzilmalar bilan murakkablashgan. Val konturida paleozoy fundamentining yotish chuqurligi 2079 metrdan (uchqir №21 qud.) 2890 metrgacha (Syuyizma №2 qud) o‘zgaradi.

Gugurtli-Uchqir ko'tarilmasi sharqiy qismi janubiy-sharqiy yo'nalishga cho'zilgan, g'arb-shimoliy-g'arbda quyidagi 5 ta lokal braxiantiklinal tuzilmalardan iborat zanjirni o'z ichiga oladi (g'arbdan sharqa): Gugurtli, Jayxun, Doyaxotin, Kurgan, Qulbeshkak va Uchqir bu tuzilmalar bir-biridan sedlovinalar bilan bo'lingan.

Qulbeshkak tuzilmasi XV-1 gorizonti krovli si bo'yicha uch gumbazli tuzilshga ega (markaziy, g'arbiy va sharqiy gumbaz)

G'arbiy gumbazda №№ 5;13 quduqlar joylashgan XV-1 gorizonti hisoblash rejasi tuzilgan va gaz zaxirasi  $S_1$  toifa bo'yicha hisoblangan.

Markaziy gumbazda №№ 1,2,3,4,7,9,15, 22, 23, 24, 25 quduqlar joylashgan XV-1 gorizonti hisoblash rejasi tuzilgan va gaz zaxirasi **B** toifa bo'yicha hisoblangan.

Sharqiy gumbazda №№ 6,8,11,16,17,34 quduqlar va Uchqir №21 quduq joylashgan bo'lib, XV-1 gorizonti hisoblash rejasi tuzilgan va gaz zaxirasi  $C_2$  toifa bo'yicha hisoblangan. Bu gumbazda 74100109 pk 125 va 37070606 pk 215 sesmoprofilar kesishgan joyda №6 quduqdan janubroqda bitta parametrik quduq burg'ulanish rejalashtirilgan.

Amudaryo sineklizasini neftgazliligini va tektonik tuzilishini Babaev A.G., Davlatov Sh.D., Ibragimov A.G., Ilin V.D., Mirkamilov X.X., Abdullaev G.S., Axmedov P.U., Krilov N.A., Nugmanov A.X., Sitdikov B.B. va boshqalar har xil yillarda o'rganib chiqishgan.

Amudaryo sineklisasi Turon plitasini eng yirik tektonik elementi hisoblanib, uning chekka yon tomonlarida navbat bilan pasayish kuzatiladi. Sineklizaning markaziy qismi cho'kindi qoplamada ham kuzatiladigan poydevorda uzilishlar bilan chegaralangan bir qator botiqlik va vallar bilan tavsiflanadi. Amudaryo sineklizasining chekka qismlarida Buxoro, Chorji, Bagadjin pog'onasi, Badxqz-Karabil ko'tarilma zonasi va Beshkent egikligi ajratiladi.

Chorji pog'onasi Buxoro pog'onasidan janub tomonda joylashgan bo'lib, shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 500 km, eniga 400 km dan 125 km gacha cho'ziladi. Janubiy-g'arbda va shimoliy-sharqda pog'ona Amudaryo daryosi ёнидан va Buxoro pog'onasini janubiy egilmasidan o'tuvchi hududiy yer yorig'i bilan chegaralangan.

Rayonning platforma qoplamasini tuzilishida yura-kaynozoy yotqiziqlarini majmuasi ishtirok etib, bunda titon tuzli qatlami bilan bir-biridan 2 qavat ajratiladi.

Tuz usti majmualar yuza qismini tuzilishi haqida to'liqroq ma'lumotlar paleogen buxoro qatlamlarining yuqori qismi bo'yicha olingan. Berilgan yuza Ko'kdumaloq maydoni va qo'shni maydonlarda barcha chuqur quduqlar bilan burg'ilangan, hamda mahalliy antiklinal burmalarni izlash maqsadida turli yillarda yoritilayotgan maydonda tuzilmali quduqlar bilan o'rganilgan. Maydalanish zonasi bilan tavsiflanadigan aylanma tuzilmaga joylashgan va "серных bugrov" nomi bilan ataladi. Zonasi ustida

bazalt sloyi va Moxo yuzasi yotqiziqlarining ko'tarilgan joyiga aniqlangan baykal massivlari cho'zilib yotadi.

Tuzusti va tuzosti tuzilmaliy rejasini taqoslaganda tuzosti yotqiziqlarini tuzilmali yuzasi va ko'p holda ohaktoshlarning mahsuldor qati munosib tarzda o'zgarishi va murakkablanishi ko'rinadi. Oksford-kimeridj rifogen kompleksi yuzasiga tegishli karbonat formatsiyasi krovli bo'yicha shimoldan Dengizko'l ko'tarilmasini botig'i hisoblangan tuzusti yotqiziqlari bo'yicha monoklinal yotgan sloyli uchastkada Markov lokal burmahanligi qarama-qarshi joylashgan. Djarchin, Umid, Shimoliy O'rtabuloq maydonlari o'zining kelib chiqishi bo'yicha oksford-kimeridj yakka rif massivlarining jadal o'sishi bilan bog'liq, keyingi kompensatsiyasida tuzli qatning rif relfi hosil bo'lgan. G'arbda O'rtabuloq va sharqda Zevarda rif tutqichlari birgalikda janubda yarim aylana hosil qilib, markazda Sardob maydoni joylashgan rifsiz turdagi karbonat yotqiziqlari bu rayonda yeng zona bo'ylab keskin chegaralangan.

Tektonik munosabat bo'yicha rifsiz zona yassi botiqlik va atrofdagi rif massivlari bilan solishtirganda tinch tuzilmaliy shakilga ega buday holat faqat Sardob burmahanligida ajratiladi.

Tuzilmali xaritaga muvofiq Sardob burmahanligi tor tuzilmali ko'rinishda bo'lib, O'rtabuloq va Markov tuzilmalarini birlashtiradi va karbonat farmatsiyasi krovli bo'yicha fleksura-yoriqliy zonani murakkablashtirgan qanotlari assimetrik tuzilishdagi shimoliy-sharqiy qisimi antiklinal ko'rinishga ega. Tuzilmalarning shimoliy- g'arbiy qanoti aylana (yotish burchagi  $20^0$ ), janubiy-sharqiy qanoti yarimdoira yotish burchagi  $5-6^0$  dan oshmaydi.

**XULOSA.** Buxoro va Chordjou tektonik pog'analari Buxoro-Xiva neftgazli oblastining asosiy tuzilmali elementlariga hisoblanadi, o'z novbatida bu tektonik elementla turli vallar, ko'tarilmalar va egekliklar bilan murakkablashgan.

Buxoro-Xiva neftgazli oblasti O'zbekiston respublikasida neft va gaz zaxirasi qazib chiqariladigan asosiy manba hisoblanadi.

Toyura kompleksi yangi obyekt hisoblanadi, Yangi obyektlarda geologo qidaruv mishlarini olib borish katta geologik tavakalchilik bilan bog'liq. Shuning uchuntavakalchilikni minimal darajada tushirish uchun kengroq prognozlash kerak bo'ladi.

Ko'p yillik tadqiqotlar jarayonida olingan natijalar toyura kompleksi qirqimida yetarli darajada kolektor jinslar qavatlari, qopqoq jinslar, organik moddalarning tarqalishi (agar UV hosil bo'lishining organik gipotezasiga etibor berilsa) va boshqa toyura jinslarining neftgazga samaradorligini yuqori baholaydigan omillar mavjudligidan guvohlik beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абидов А.А. Нефтегазоносность литосферных плит. Т., «Фан», 1984, 125
2. Бабаев А.Г. Геотектоническая история Западного Узбекистана и региональные закономерности размещения скоплений нефти и газа. Л., Недра, 1966г.
3. Буш В.А., Гарецкий Р.Г., Кирюхин Л.Г. Тектоника эпигеосинклинального палеозоя туранской плиты и ее обрамления / М., Наука, 1975
4. Axmedov X.R Buxoro-Xiva regionining markaziy qismda mezozoy-kaynozoy tarixining turli bosqichlarida hosil bo'lgan lokal tuzilmalarning yoshi va makondagi munosabatlarini rutbali paleotektonik tahlili / Sanoatda raqamli texnologiyalar Ilmiy-texnik jurnali, №2(3) / 2024 QarMII "INTELLEKT" MIU nashriyoti. 120-127 b/

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14502086>

## QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA QISHLOQ XO'JALIGI INSHOOTLARINI ISITISH UCHUN ENERGIYA TEJAYDIGAN TIZIMLAR

Fayzullayev Ixtiyor Muqimovich

(QarMII) Qarshi.sh.

[fayzullayev0511@gmail.com](mailto:fayzullayev0511@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Qishloq xo'jaligi inshootlarini energiya tejaydigan isitish tizimini yaratish mamlakat yoqilg'i-energetika kompleksining rivojlanish tendentsiyalari, hayvonlarni saqlash sharoitlari va yoqilg'i resurslarini tejash imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Chorvachilik korxonalari issiqlik energiyasining yirik iste'molchilari bo'lganligi sababli, ulardan foydalanish ishlab chiqarish tannarxiga sezilarli ta'sir qiladi. Umuman chorvachilik korxonasi samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha eng samarali issiqlik ta'minoti tizimini tanlashni asoslash muhimdir. Ushbu maqolada quyosh energiyasidan foydalanib qishloq xo'jaligi inshootlarini isitish uchun energiya tejamkor tizimlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Quyosh energiyasidan foydalanish atrof muhitni ifloslantirmaslikka va energiya resurslarni tejashga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Energiya, isitish tizimini, yoqilg'i resurslari, issiqlik energiyasi, quyosh energiyasi, energiya manbai, quyosh qurilmalari, issiq suv ta'minoti, faol tizimlar, passiv tizimlar, qayta tiklanadigan energiya manbalari.*

### ABSTRACT

*The creation of an energy-efficient heating system of agricultural facilities is carried out taking into account the development trends of the country's fuel and energy complex, the conditions for keeping animals and the possibility of saving fuel resources. Since livestock enterprises are large consumers of thermal energy, their use significantly affects the cost of production. It is important to justify the choice of the most effective heat supply system in terms of technical and economic indicators that affect the efficiency of the livestock enterprise as a whole. This article provides information on energy efficient systems for heating agricultural structures using solar energy. The use of solar energy serves not to pollute the environment and energy saves resources.*

**Keywords:** *Energy, heating system, fuel resources, thermal energy, solar energy, energy source, solar devices, hot water supply, active systems, passive systems, renewable energy sources.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье Создание энергоэффективной системы отопления сооружений для сельского хозяйства с использованием солнечной энергии развитие топливно-энергетического комплекса нашего государства, создание условий и возможностей для содержания сельскохозяйственных животных с экономией топливных ресурсов, в связи с тем, что животноводческие предприятия являются крупными потребителями тепловой энергии, существенно влияет на их использование, себестоимость продукции. По технико-экономическим показателям наиболее эффективная система теплоснабжения является показателем эффективности животноводческого предприятия в целом, с учетом того, что использование солнечной энергии помогает предотвратить загрязнение окружающей среды и экономит энергию.*

**Ключевые слова:** Энергия, система отопления, топливные ресурсы, тепловая энергия, Солнечная энергия, источник энергии, солнечные установки, горячее водоснабжение, активные системы, пассивные системы, возобновляемые источники энергии.

**KIRISH.** 21-asrda quyosh energiyasi zichligi pastligi va o'zgaruvchanligiga qaramay, ko'plab mamlakatlarda keng qo'llanila boshlandi [1]. Ma'lumki, quyosh har daqiqada sayyoramizning yoritiladigan yuzasiga bir yil ichida dunyoning barcha elektr stantsiyalari va issiqlik markazlari ishlab chiqaradigan energiya miqdorini etkazib beradi. Quyosh nafaqat bitmas-tuganmas, balki eng " toza " energiya manbai hisoblanadi, shuning uchun ishlab chiqarish, turar-joy, jamoat binolari va qishloq xo'jaligi inshootlarini isitish uchun quyosh energiyasidan foydalanish istiqbolli hisoblanadi. Geografik joylashuvi va hududning iqlim xususiyatlari quyosh energiyasidan foydalanish samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi paytlarda energiya narxlarining iste'mol darajasiga qarab keskin o'zgarishi tendentsiyasi kuzatilmoqda: energiya yetishmasligi belgilari aniqlangandan so'ng, uning narxi oshadi. Ortiqcha energiya paydo bo'lganda, narxlar barqarorlashadi va ba'zida pasayishni boshlaydi. Ammo energiya iste'moli tobora ortib boradi va resurslar tugaydi va bu, albatta, ishlatilgan barcha turdagi energiya iste'moli va narxlariga ta'sir qiladi. Agar biz ushbu ko'rsatkichni hisobga olsak, energiya resurslarini tejash vazifasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda va ko'plab energiya tejaydigan texnologiyalar iqtisodiy maqsadga aylanmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Qishloq xo'jaligi inshootlarini energiya tejaydigan isitish tizimini yaratish mamlakat yoqilg'i-energetika kompleksining rivojlanish tendentsiyalari, hayvonlarni saqlash sharoitlari va yoqilg'i resurslarini tejash imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Chorvachilik korxonalarini issiqlik energiyasining yirik iste'molchilari bo'lganligi sababli, ulardan foydalanish ishlab chiqarish tannarxiga sezilarli ta'sir qiladi. Umuman chorvachilik

korxonasi samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha eng samarali issiqlik ta'minoti tizimini tanlashni asoslash muhimdir.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi kuchli energiya iste'molchisi sifatida ishlaydi. Energiya xarajatlarining katta qismi fermer xo'jaliklarida mikroiklimning maqbul parametrlarini saqlashga to'g'ri keladi, bu esa mahsuldorlikni oshirishga yordam beradi. Havoning harorati va namligi xona hayvonlarning normal fiziologik holatini ta'minlash jarayonida asosiy omil hisoblanadi. Chorvachilik va parrandachilik binolarida optimal havo parametrlari, harorat +12...16oC, nisbiy namlik 60...70% [2]. Hayvon tanasining issiqlik muvozanatining barqarorligi atrof-muhit haroratining barqarorligiga bog'liq. Kerakli haroratni saqlab turish va boshqa zarur xona parametrlari bilan birgalikda ishlab chiqarish 30% ga oshishi mumkin [3]. Shuning uchun chorvachilik va parrandachilik binolari samarali shamollatish va isitish tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Past haroratli issiqlik shaklida quyosh energiyasidan foydalanish past haroratlarda issiqlik yo'qotilishini kamaytirish orqali quyosh qurilmalari samaradorligini oshirishga imkon beradi. Isitish uchun quyosh energiyasidan foydalanishning ikki turi mavjud: faol va passiv. Passiv tizimlar ularni quvvatlantirish uchun energiya sarfini talab qilmaydi va faol tizimlardan foydalanganda qo'shimcha energiya talab qilinadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, issiq suv uchun ishlatiladigan quyosh suv isitgichlari 3 yildan 8 yilgacha o'z samarasini berishi mumkin. Issiq suv tizimlari keng amaliy qo'llanilmoqda. Biroq, qisqa vaqt ichida isitish bilan issiq suv ta'minoti tizimlari hali to'lanmaydi. Bunday tizimlar yanada murakkab va iqtisodiy nuqtai nazardan ular hali samarali emas.

**NATIJALAR.** Quyosh energiyasining passiv tizimlarini amaliyotga joriy etish keng foydalanish asosida turar-joy, turar-joy binolari va qishloq xo'jaligi inshootlarini isitish uchun issiqlik energiyasi sarfini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Passiv quyosh isitish va shamollatish tizimidan foydalangan holda qishloq xo'jaligi inshooti quyidagilarga imkon beradi [4-5]: - kollektor-saqlash devori orqali issiqlik tashishning ko'payishi bilan qoraygan sirt haroratini kamaytirish orqali shaffof qoplama orqali issiqlik yo'qotilishini kamaytirish; - yilning sovuq davrida xonaga isitiladigan toza havo yetkazib berish imkoniyati mavjud; - xonaning shamollatilishini tabiiy yoki majburiy ravishda yaxshilash. Shuni ham ta'kidlash kerakki, issiqlik ta'minoti uchun quyosh energiyasidan foydalanish individual iqtisodiyotda keng foydalanish uchun katta istiqbollarga ega, bu yerda quyosh energiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Energiyani tejashning keng va maqsadli o'tkazilishi yoqilg'i-energetika resurslarini tejashga imkon beradi.

**XULOSA.** Respublikaning Janubiy viloyatlarining qishloq xo‘jaligida geliotexnikani (quyosh energiyasidan foydalanish) joriy etish imkoniyati mavjud, qishloq xo‘jaligi binolarida qurilishni rivojlantirish va takomillashtirish mumkin, bu birinchidan binolarni isitish uchun yoqilg‘i tejashga imkon beradi, ikkinchidan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi tabiiy isitishdan past bo‘ladi, uchinchidan bunday tizimlarning qurilishi amalga oshirilmaydi, isitish tizimlariga qaraganda qimmatroq va sodda va hokazo. Kelgusida respublikaning Janubiy hududlarida faol va passiv isitish tizimlari bilan qishloq xo‘jaligida issiqlik ta‘minoti sohasida quyosh qurilmalarining yanada rivojlangan turlarini qo‘llash keng ko‘lamda ko‘zda tutilgan.

Qishloq xo‘jaligi sanoatining hozirgi rivojlanish darajasi va uning xom ashyo bazasining holati uning energiya ta‘minoti muammosini hal qilishda, shu jumladan an‘anaviy va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishda tubdan yangi yondashuvni talab qiladi. Qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish an‘anaviy kam energiya manbalarini tejaydi va ishlab chiqarish ekologiyasini yaxshilaydi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Использование нетрадиционных возобновляемых источников энергии и местных видов топлива. <http://www.vostep10.ru>.
2. Валов М.И. Использование солнечной энергии в системах теплоснабжения. – М: ИЭМ, стр.140. 1991 г.
3. Енин П.М. «Практического использование возобновляемых и традиционным источников энергии». Киев. 1993 г.
4. Козлов В.Б. Основные направления развития разработок по нетрадиционным возобновляемым источникам энергии. – М: 1997 г.
5. Гаряев А.Б. Энерго и ресурсосбережение в теплопередающих и теплоиспользующих установках. – М: МЭИ, 2002 г.
6. Леончин Б.И., Данилов О.Л. Научные основы энергосбережения– М: МГУУПП. 2000 г.
7. Твайделл Дж.Возобновляемые источники энергии. М.: Атомэнергоиздат, 1990.
8. Л.И.Шпаков, В.В.Юнаш. Водоснабжение, канализация и вентиляция на животноводческих фермах. -М: ВО Агропромиздат. 1987. 146с.
9. А.Н.Сканави. Отопление.- М: Стройиздат. 1988.-416 с.
10. Энергоактивные здания. М., Стройиздат, 1988. -376с.
11. Чакалев К.Н., Садыков Ж.Д. // Гелиотехника 1994. №1. 53-56с.

### Internet manbalari:

1. [Ziyonet.uz](http://Ziyonet.uz);
2. <http://www.rosteplo.ru>;
3. <http://www.abok.ru>;
4. <http://www.03-ts.ru>;



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14502106>

## TRANSPORT VOSITALARINING TASHQI TELEMATIK TIZIMLARI VA ULARNING AHAMIYATI

**Karimov Akmal Akbarovich,**  
QarMII dotsenti,

**Ergasheva Dilso‘z Istamovna,**  
QarMII assistent.

***Annotatsiya:** Transport vositalarida telematik tizimlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Ayniqsa harakat xavfsizligini ta‘minlashda telematika muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada transport vositalarining tashqi telematik tizimlari va ularning ishlash jarayonlari haqida ma‘lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Tashqi telematika, radar, LIDAR, aqlli transport tizimlari, 5 G tarmog‘i, sun‘iy intellekt, GPS tizimi.*

**Kirish.** Transport vositasining tashqi telematik tizimlari — bu avtomobilning tashqi muhitini kuzatish, boshqarish va xavfsizligini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan texnologik tizimlar majmuasidir. Ushbu tizimlar sensorlar, radarlar, kameralar, va GPS kabi qurilmalardan foydalanadi va avtomobilning atrofidagi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

### **Tashqi telematik tizimlarining asosiy komponentlari**

#### 1. Sensorlar:

**Radar:** Avtomobilning atrofidagi ob‘ektlarni aniqlash va masofani o‘lchash uchun ishlatiladi. Radarlar Adaptive Cruise Control (ACC) va Collision Warning tizimlarida muhim rol o‘ynaydi.

**Ultratovushli sensorlar:** O‘rindiqni tahlil qilish, parking assist tizimlarida masofa o‘lchashda qo‘llaniladi.

**Kameralar:** Yo‘llardagi obyektlarni kuzatish, masalan, Lane Departure Warning (LDW) va Blind Spot Detection (BSD) tizimlarida ishlatiladi.

**LIDAR:** Obyektlarning uch o‘lchamli xaritasini yaratishga yordam beradi, ayniqsa avtomatik boshqaruv tizimlarida qo‘llaniladi.

**GPS tizimi:** Avtomobilning aniq joylashuvini aniqlash va navigatsiyani boshqarishda ishlatiladi.

## 2. Avtomobilning tashqi muhitini monitoring qilish tizimlari:

Adaptive Cruise Control (ACC): Oldingi transport vositasiga nisbatan tezlikni avtomatik ravishda boshqarish va saqlash.

Lane Departure Warning (LDW): Avtomobil yo‘l chizig‘idan chiqsa, ogohlantirish beradi.

Blind Spot Detection (BSD): Haydovchi ko‘ra olmaydigan zonalardagi boshqa transport vositalarini aniqlaydi.

Parking Assist: Orqa kamera va sensorlar orqali avtomobilni to‘g‘ri joylashtirish uchun yordam beradi.

Collision Warning: Oldingi to‘qnashuvlarni aniqlash va tormozlash tizimi orqali xavf-xatarni kamaytiradi.

### **Tashqi telematik tizimlarining funksiyalari**

1. Atrof-muhitni tahlil qilish: Tashqi tizimlar avtomobilni xavfsiz boshqarishda, yo‘ldagi to‘siqlar, piyodalar, boshqa transport vositalarini aniqlashga yordam beradi.

2. Haydovchiga yordam: Tizimlar haydovchiga ogohlantirishlar berib, undan so‘ng avtomatik ravishda harakatlarni boshqarishi mumkin. Masalan, ACC tizimi tezlikni saqlab qolish uchun avtomatik tormozlashni amalga oshiradi.

3. Xavfsizlikni ta‘minlash: Tashqi tizimlar to‘qnashuvlarni oldini olish, masofa saqlash va boshqa xavfsizlik choralari ko‘rishda ishlaydi. Collision Warning tizimi, masalan, potentsial to‘qnashuvni aniqlab, avtomatik ravishda tormozlashni boshlashi mumkin.

4. Avtomobilni tashqi muhitga moslashtirish: GPS va boshqa tizimlar yordamida avtomobil navigatsiyani boshqarib, harakatlarni optimallashtiradi.

### **Tashqi telematik tizimlarining rivojlanishi va kelajagi**

1. Aqlli transport tizimlari: Transport vositalari va tashqi infratuzilma (aqlli yo‘llar, aqlli shaharlar) o‘rtasidagi integratsiya orqali avtomobillar yanada mustahkam va xavfsiz bo‘ladi.

2. 5G tarmoqlari: Tashqi tizimlar uchun 5G tarmoqlarining joriy etilishi, ma‘lumotlarni tez va samarali uzatishni ta‘minlaydi, bu esa real vaqt rejimida avtomobilning atrofidagi ma‘lumotlarni yanada aniqroq va tezroq tahlil qilish imkonini beradi.

3. Sun‘iy intellekt (AI) va mashina o‘rganish: AI va mashina o‘rganish texnologiyalarining qo‘llanilishi, tashqi tizimlarning yanada aniq va avtomatik ishlashini ta‘minlaydi. Tizimlar yanada murakkab vaziyatlarni o‘zlashtirib, haydovchiga tezroq qaror qabul qilish imkonini beradi.

### **Tashqi telematik tizimlarining afzalliklari**

1. Xavfsizlikni oshiradi: Yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda yordam beradi.

2. Haydovchining qulayligini oshiradi: Avtomatik boshqaruv va ogohlantirish tizimlari haydovchiga kamroq stress va xavfsizlik bilan harakat qilish imkonini beradi.

3. Yo'1 harakatining samaradorligini oshiradi: Transport vositalarining tezlik va masofa saqlash tizimlari orqali harakatni optimallashtiradi.

4. Energiyani tejaydi: Tizimlar tezlikni va harakatni samarali boshqarish orqali yoqilg'ini tejashga yordam beradi.

#### **Amaliyot uchun tavsiyalar**

1. Tizimlarni sinovdan o'tkazish: Talabalarga yoki amaliyotchi mutaxassislarga tashqi telematik tizimlarni sinovdan o'tkazish va ularning samaradorligini o'lchash bo'yicha topshiriqlar berish.

2. Kamera va sensorlarni sozlash: Tashqi tizimlarning kameralarini va sensorlarini to'g'ri sozlash va ularning ishlashini tahlil qilish.

3. Simulyatsiyalarni yaratish: Simulyatsiya dasturlari yordamida tizimlarning samaradorligini baholash va optimallashtirish.

#### **Xulosa**

Transport vositasining tashqi telematik tizimlari, avtomobilni xavfsiz va samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan texnologik tizimlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizimlar atrof-muhitni monitoring qilish, xavfsizlikni oshirish va harakatni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Kelajakda aqlli transport tizimlari, 5G va sun'iy intellekt yordamida bu tizimlar yanada samarali bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1]. Karimov, A. (2023). Parameters justification of the improved potato digger. Innovative Development in Educational Activities, 2 (18), 256–263.
- [2]. Mamatov F. M., Karimov A. A. Potato digger with latticed plowshares and oscillating rods. E3S Web of Conferences, 2023. 401, P. 04029.
- [3]. Karimov, A. (2023). THEORETICAL JUSTIFICATION OF THE PARAMETERS OF AN IMPROVED POTATO DIGGER. Innovatsion Texnologiyalar, 51(03), 135–141. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/537>
- [4]. Karimov, A. (2023). PARAMETERS JUSTIFICATION OF THE IMPROVED POTATO DIGGER. Innovative Development in Educational Activities, 2(18), 256–263. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1655>
- [5]. Karimov A.A. Parameters of the working body of root crops // Prospects for the introduction of innovative technologies in the development of agriculture:

- International conference: – Fergana, 2021. –B.208-213.  
doi:10.47100/conferences.vlil.1335
- [6]. Karimov, A. (2023). PARAMETERS JUSTIFICATION OF THE IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(18), 256–263. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1655>
- [7]. Karimov, A. (2021, July). PARAMETERS OF THE WORKING BODY OF ROOT CROPS. In *Конференции*.
- [8]. Каримов , А. А., & Кичкинаев, М. А. у. (2023). ПРИСАДКА ДЛЯ МОТОРНЫЕ МАСЛА. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 1021–1024. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2512>.
- [9]. Karimov , А. А., & Zikriyoyev , S. U. o‘g‘li. (2023). QARSHI SHAHRI KO‘CHALARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI ILMIY ASOSDA TADQIQ QILISH. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(22), 190–199. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1832>
- [10]. Karimov, А. А. (2023). INTELEKTUAL TIZIMLARNING HARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA‘SIRINING AHAMIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(18), 181-184.
- [11]. Karimov, А. (2023). THEORETICAL JUSTIFICATION OF THE PARAMETERS OF AN IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovatsion Texnologiyalar* , 51(03), 135–141. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/537>
- [12]. Karimov, A. (2021, July). PARAMETERS OF THE WORKING BODY OF ROOT CROPS. In *Конференции*.
- [13]. Karimov, A. (2023). PARAMETERS JUSTIFICATION OF THE IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(18), 256–263. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1655>
- [14]. Насиров, И. З., Косимов, И. С., & Каримов, А. А. (2017). Морфологик тахлил" методини қўллаб ўт олдириш свечасини такомиллаштириш. *Инновацион технологиялар*, 3, 27-74.
- [15]. Karimov, А. А. (2024). Organizing Management in the Transport Logistics System. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture*, 2(6), 66-68.
- [16]. Akbarovich, K. A., & Uroqovich, X. H. (2024). The Importance of Goods and Material Flows and Warehouses in the Development of Logistics. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(6), 564-568.
- [17]. Бойназаров, У. Р., & Каримов, А. А. (2013). Влияние предварительного окисления на процесс азотирования. In *СОВРЕМЕННЫЕ МАТЕРИАЛЫ, ТЕХНИКА И ТЕХНОЛОГИЯ* (pp. 90-92).

- [18]. Karimov, A. A., & Rajabov, O. (2024). TIJORAT BANKLARIDA KASSA ISHINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *GOLDEN BRAIN*, 2(15), 95-105.
- [19]. Karimov, A. (2023). TAKOMILLASHTIRILGAN KARTOSHKA KOVLAGICHNING PARAMETRLARINI NAZARIY ASOSLASH. *Innovatsion texnologiyalar*, 51(03), 135-141.
- [20]. Каримов, А. А., & Азизов, Ш. А. (2022). ОБОСНОВАНИЯ СРОКОВ СЛУЖБЫ МОТОРНЫХ МАСЕЛ НА АВТОМОБИЛЯ «SHACMAN» УСЛОВИЯ ЭКСПЛУАТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Conferencea*, 35-39.
- [21]. Маматов, Ф. М., & Каримов, А. А. (2022). ИЛДИЗМЕВАЛИ ЭКИНЛАРНИ ЙИФИБ-ТЕРИБ ОЛИШ ТЕХНИК ВОСИТАЛАРИ ВА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРИ. *Инновацион технологиялар*, 1(1 (45)), 60-65.
- [22]. Karimov, A. A. PARAMETERS OF THE WORKING BODY OF ROOT CROPS.
- [23]. Бойназаров, У. Р., & Каримов, А. А. (2013). ВЛИЯНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО ОКИСЛЕНИЯ НА ПРОЦЕСС АЗОТИРОВАНИЯ Бойназаров Урол Равшанович, к. т. н., доцент, Каримов Акмал Акбарович, ассистент. *Председатель организационного комитета-Куц Вадим Васильевич*, 90.
- [24]. Mamatov, F., Karimov, A., & Shodmonov, G. (2023). Study on the parameters of bars of the potato digger ploughshare. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 434, p. 03012). EDP Sciences.
- [25]. Karimov, A. A., & Jalilov, S. R. (2024). A TECHNIQUE FOR DIGGING POTATOES PLANTED IN SMALL AREAS. *RESEARCH AND EDUCATION*, 3(9), 4-9.
- [26]. Karimov, A. A. (2024). ILDIZMEVALARNI YIG 'IB-TERIB OLISHGA MO 'LJALLANGAN KOVLAGICHNING PARAMETRLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(10), 55-61.
- [27]. Karimov, A. A. (2024, March). TECHNIQUES AND TECHNOLOGIES OF DIGGING POTATOES GROWN IN SMALL PLOTS. In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 4, pp. 109-115).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14502122>

## MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASHDAGI ROLI

**A.Masharipov**

Urganch davlat universiteti dotsenti,

**Z.Yusupov**

Urganch davlat universiteti talabasi.

**Kirish.** Biologik xilma-xillik (bioxilma-xillik) tabiatning boyligi va barqarorligi uchun asosiy omillardan biridir. Ammo inson faoliyati natijasida ekologik muhitga boʻlgan zarar koʻplab oʻsimlik va hayvon turlarining kamayishiga, baʼzan yoʻq boʻlib ketishiga olib kelmoqda. Tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish, urbanizatsiya va iqlim oʻzgarishi kabi omillar bu jarayonni tezlashtirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik xilma-xillikni saqlashda va tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan koʻrinadiki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot obyekti va metodlari.** Tadqiqot obyekti muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hamda tadqiqotda quyidagi usullar qoʻllanildi: muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning turlari va ularning funksiyalarini oʻrganish uchun ilmiy adabiyotlar va xalqaro maʼlumotlar bazalari tahlil qilindi. Shuningdek, Oʻzbekiston hududidagi mavjud muhofaza etiladigan hududlar va ularning faoliyati haqida mahalliy hisobotlar oʻrganildi hamda biologik xilma-xillikning saqlanishi boʻyicha xalqaro tajribalar oʻrganilib, ularning Oʻzbekistonga tatbiqi muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalari.** Tabiiy yashash muhitlarini himoya qilish. Bunda asosan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekotizimlarning asosiy qismlarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Oʻzbekistonning bir qancha qoʻriqxonalarida hududlardagi noyob va endemik turlar yashash joylarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Yoʻqolib borayotgan turlarni tiklashda Xorazm viloyatida joylashgan Xorazm milliy tabiat bogʻi hamda Amudaryo delta mintaqasida joylashgan Quyi Amudaryo davlat biorezervati va unda amalga oshirilayotgan loyihalar orqali hududlarning tabiiy sharoiti tiklanmoqda. Bu esa koʻplab qushlar, baliqlar va oʻsimlik turlari uchun yangi yashash joylarini yaratmoqda.

Ekotizim xizmatlarini ta'minlash borasida esa muhofaza etiladigan tabiiy hududlar suv havzalarini tozalash, tuproq unumdorligini saqlash va iqlim barqarorligiga hissa qo'shishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Zarafshon qo'riqxonasi orqali mintaqaning suv resurslari boshqarilmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar va ekologik monitoring ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ilmiy tadqiqotlar uchun maydon yaratadi. Ilg'or texnologiyalar, jumladan masofada turib kuzatuvlari orqali muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekologik monitoring amalga oshirilmoqda. Bu esa tabiiy jarayonlarni samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Aholi ishtiroki va ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda mahalliy aholini jalb qilish orqali ularning ekologik savodxonligini oshiriladi. Ekoturizm (mahalliy aholini ayniqsa, yosharning tabiat qo'yniga doimiy sayohati ularning tabiat bilan uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchidan hududning infrastrukturasi yaxshilashga yordam beradi) va ta'lim loyihalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

**Munozara.** Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik xilma-xillikni saqlashning samarali vositasi bo'lib, ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan boshqaruv tizimiga bog'liq. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, davlat va xususiy sektor hamkorligi, mahalliy aholi ishtiroki va innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhofaza etiladigan tabiiy hududlar samaradorligini oshiradi. O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud: moliyalashtirishning yetarli emasligi, monitoring tizimlarining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va shuningdek, bu borada huquqiy asoslarning takomillashtirilishi zarur.

**Xulosa va tavsiyalar.** Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekologik barqarorlikni ta'minlashda va biologik xilma-xillikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu hududlar orqali nafaqat tabiiy resurslar himoya qilinadi, balki barqaror rivojlanish uchun zamin yaratiladi. O'zbekiston muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining salohiyatini oshirish uchun muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning maydonlarini kengaytirish va ularni boshqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahalliy aholini muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarishga jalb qilish va ularga ekologik ta'limni rivojlantirish, xalqaro ekologik dasturlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va moliyalashtirishni kengaytirish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik xizmatlarini iqtisodiy baholash tizimini ishlab chiqish kerak.

Kelgusida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar orqali nafaqat bioxilma-xillikni saqlash, balki barqaror turmush tarzini rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bioxilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiya (CBD) va unga asoslangan xalqaro hisobotlar.
2. UNESCO biosfera rezervatlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hisobotlari.
4. Sharipov, A., & Tursunov, R. «O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rivojlanish istiqbollari». Ekologik tadqiqotlar jurnali. 2021.
5. Nazarova, G. «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning iqtisodiy ahamiyati». Markaziy Osiyo ekologik tadqiqotlari. 2020.



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14502166>

## YARIMQATTIQQANOTLI (HEMIPTERA: HETEROPTERA) HASHAROTLARINING TURLAR TARKIBI.

A.X.Qo‘chqorov,  
S.I.Chinberdieva

O‘zbekiston Milliy universiteti  
[abdivohid2563@gmail.com](mailto:abdivohid2563@gmail.com)

*Annotatsiya.* Ushbu tadqiqot ishi Andijon viloyatining 4 ta tumani 10 dan ortiq fermer xo‘jaliklari va aholilarning mevali bog‘larida yarimqattiqqanotli qandalalarning turlar tarkibini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqotlar 2022-2024 yil aprel oylaridan - noyabr oylarigacha mavsum davomida fasllar kesimida kuzatish ishlari olib borildi. Yig‘ilgan ma‘lumotlar tahlil qilinganda 8 ta oilaga mansub 63 ta turga mansub qandalalar aniqlandi. Kuzatishlarimizdan ma‘lum bo‘ldiki eng ko‘p uchraydigan turlar Miridae va Pentatomidae oilalariga to‘g‘ri keldi.

*Kalit so‘zlar:* ekologiya, mezofillar, mezofillar, kserofillar, Heteropter, dominantlar, yarim qattiq tishlilar.

**Kirish.** Qandalalarning aksariyat turlari o‘simlikxo‘r bo‘lib, ular 200 dan ortiq o‘simlik turlari bilan oziqlanadi. Masalan, AQSH da Lygus avlodiga mansub Lygus hesperus turi g‘o‘za hosiliga yiliga 30 mln, boshqa qishloq xo‘jalik ekinlariga 40 mln dollar miqdorida iqtisodiy zarar keltirmoqda [5, 6]. Jahonda oziq – ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalalari asosiy o‘rindagi vazifa bo‘lib turgan hozirgi vaqtda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar alohida e‘tiborga molik [7, 8, 9]. Garchi qandalalarning aksariyati zararkunanda hisoblansa – da, ammo ular orasida zararkunanda hasharotlarni qirib foyda keltiradigan turlariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda [10, 11].

### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Markaziy Osiyo hududida A.P. Fedchenko rahbarligida 1869–1890-yillar davomida Turkiston o‘lkasining tabiatini o‘rganish maqsadida ekspeditsiyalar olib borilgan [1]. A.P. Fedchenko va O.A. Fedchenkolar tomonidan Farg‘ona vodiysi, Turkiston tizma tog‘laridan, Oloy tizma tog‘lari va Oloy vodiysigacha yo‘nalishda tog‘

mintaqasi bo‘ylab marshrut tadqiqotlari amalga oshirilgan. Olib borilgan ekspeditsiyalarda V.F. Oshanin, A.G. Regelya, V.F. Russova, P.P. Semenovix, A.P. Semenovix, Capus, Bonvalo kabi yetuk zoolog olimlar tomonidan Markaziy Osiyoda tarqalgan qandalalarning 384 turi va ularning zoogeografiyasi o‘rganilgan [2,].

O‘zbekistonda V.V. Yaxontov shimoliy O‘zbekiston beda agrobiotsenozida tarqalgan 32 tur qandalalarni aniqlab, ularni dominant, foydali va zararli turlarga ajratgan [2, 3]. R.A. Olimjanov beda qandalalarining (*Adelphocoris lineolatus*, *Adelphocoris jacovlevi*) Toshkent viloyati beda agrobiotsenozidagi va laboratoriya sharoitidagi bio-ekologik xususiyatlarini o‘rgangan [12]. V.V. Yaxontov, A.G. Davletshina [78] Amudaryo qirg‘oqlari daraxt va butalarda uchrovchi so‘qir qandalalarning 12 turini aniqlagan. I.M. Kerjner [45] Markaziy Osiyoning tog‘ va tog‘ oldi hududlarida tarqalgan qandalalarning faunasini o‘rgangan. I.L. Xrusheva [87] O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston beda agrobiotsenozlarida beda qandalasi (*Adelphocoris lineolatus* Goeze) ning bio-ekologik xususiyatlarini o‘rgangan. O.P. To‘ychiyev Qashqadaryo viloyati beda agrobiotsenozlarida beda qandalasi (*Adelphocoris lineolatus*) ning rivojlanishini o‘rgangan [4].

### **Тадқиқотнинг усуллари.**

Tadqiqotlar A.N.Kirichenko (1951), I.M.Kerjner va N.N.Muminov (1964), R.B.Asanova va B.V. Iskakov (1977) hamda V.B. Golub va boshq. (2012) usullari asosida o‘tkazildi. Qandalalarni yig‘ishda diametri 34-40 sm bo‘lgan entomologik tutqich (sachok) va diametri 1m<sup>2</sup> bo‘lgan oq mato (Beat sheet) hamda yorug‘lik tutqichlaridan foydalanildi. Yig‘ilgan materiallar 96 % li spitrda plastmassa idishlarda saqlandi. Shuningdek MBS-109 binokulyardan foydalanildi.

### **Olingan natijalar**

Mazkur tadqiqot ishimizda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida Andijon viloyatda Oltin ko‘l tumani “Qo‘hna vodiy ishonchi”, Botirov serhosil yerlari”, “Elga yor tolasi” fermer xo‘jaligi. Xo‘jaobod tumani “Samo–Tekstil”, Fayz – M MCHJ., “Nuralim – ota” fermer xo‘jaligi, Buloq boshi tumani “Abdumalik Ikromov”, “Malik Raximov”, “Solmonbek Jamshidov”, “Abdumannop Ismatov” fermer xo‘jaligi. Marhamat tumani “Marhamat Tekstil agro – MCHJ”, “Faraxbaxsh dil”, “Yoqutoy meva bog‘lari” va “Boboxurosan paxtasi” fermer xo‘jaligi dalalarida yarimqattiqqanotlilar tur tarkibi, tarqalishi va zichligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar mavsum mobaynida olib borildi, natijada 8 oilaga mansub 63 tur qandalalarni uchrashini aniqladik va ular 1 – jadvalda o‘z aksini topgan.


## 3.1. – Jadval.

**Andijon viloyati hududlarida uchraydigan qandalalarning  
turlar tarkibi**

№	O'rganilgan turlar
	<b>1. Lygaeidae Schilling, 1829 – oilasi</b>
1.	<i>Lygaeus equestris</i> (Linnaeus, 1758)
2.	<i>Spilostethus rubriceps</i> (Horvath, 1899)
3.	<i>Nysius graminicola</i> (Kolenati, F.A., 1845)
4.	<i>Oxycarenus pallens</i> (Herrich-Schäffer, 1850)
5.	<i>Ortholomus punctipennis</i> (Herrich-Schäffer, 1850)
	<b>2. Nabidae Costa, 1852 – oilasi</b>
6.	<i>Nabis fesus</i> (Linnaeus, 1758)
7.	<i>Nabis palifer</i> (Seidenstücker, 1954)
8.	<i>Nabis viridis</i> (Brullé, 1839)
9.	<i>Nabis rugosus</i> (Linnaeus, 1758)
	<b>3. Miridae Hahn, 1833 – oilasi</b>
10.	<i>Deraeocoris punctulatus</i> (Fallén, 1807)
11.	<i>Deraeocoris serenus</i> (Douglas & Scott, 1868)
12.	<i>Adelphocoris lineolatus</i> (Coeze, 1778)
13.	<i>Adelphocoris seticornis</i> (Fabricius, 1775)
14.	<i>Lygus pratensis</i> (Linnaeus, 1758)
15.	<i>Lygus gemellatus</i> (Herrich – Schäffer, 1835)
16.	<i>Lygus pachycnemis</i> (Reuter, 1879)
17.	<i>Lygus rugulipennis</i> (Poppius, 1911)
18.	<i>Lygus punctatus</i> (Zetterstedt, 1838)
19.	<i>Polymerus vulneratus</i> (Panzer, 1806)
20.	<i>Polymerus cognatus</i> (Fieber, 1858)
21.	<i>Notostira elongata</i> (Geoffroy, 1785)
22.	<i>Stenodema turanica</i> (Reuter, 1904)
23.	<i>Stenodema virens</i> (Linnaeus, 1767)
24.	<i>Stenodema calcaratum</i> (Fallen, 1807)
25.	<i>Stenodema tripsinosa</i> (Reuter, 1904)
26.	<i>Stenodema laevigata</i> (Linnaeus, 1758)
27.	<i>Trigonotylus pulchellus</i> (Hahn, 1834)
28.	<i>Campylomma annulicorne</i> (Signoret, 1865)
29.	<i>Campylomma diversicornis</i> (Reuter, 1878)
30.	<i>Campylomma verbasci</i> (Meyer – Dur, 1843)
31.	<i>Megacoelum brevirostre</i> (Reuter, 1879)
32.	<i>Tuponia eleganc</i> (Jakovlev 1867)
	<b>4. Tingidae Laporte, 1832 – oilasi</b>
33.	<i>Monosteira discoidalis</i> (Jakovlev, 1883)
34.	<i>Stephanitis pyri</i> (Fabricius, 1775)

35.	<i>Tingis leptochila</i> (Horvath, 1906)
	<b>5. Reduviidae Latreille, 1807 – oilasi</b>
36.	<i>Stenolemus bogdanovi</i> (Oshanin, 1896)
37.	<i>Coranus subapterus</i> (De Geer, 1773)
38.	<i>Rhynocoris monticola</i> (Oshanin, 1870)
39.	<i>Reduvius christophi</i> (Jakovlev, 1874)
40.	<i>Reduvius fedtschenkianus</i> (Oshanin, 1871)
	<b>6. Pentatomidae Leach, 1815 – oilasi</b>
41.	<i>Aelia acuminata</i> (Linnaeus, 1758)
42.	<i>Aelia furcula</i> (Fieber, 1868)
43.	<i>Aelia melanota</i> (Fieber, 1868)
44.	<i>Brachynema germari</i> (Kalenati, 1846)
45.	<i>Carpocoris pudicus</i> (Poda, 1761)
46.	<i>Carpocoris fuscispinus</i> (Boheman, 1851)
47.	<i>Palomena prasina</i> (Linnaeus, 1761)
48.	<i>Desertomenida albula</i> (Kiritshenko, 1914)
49.	<i>Derula longipennis</i> (Oshanin, 1871)
50.	<i>Apodiphus integriceps</i> (Horváth, 1888)
51.	<i>Cellobius abdominalis</i> (Jakovlev, 1885)
52.	<i>Codophila varia</i> (Fabricius, 1787)
53.	<i>Holcostethus nitidus</i> (Kiritshenko, 1914)
54.	<i>Menaccarus deserticola</i> (Jakovlev, 1900)
55.	<i>Eurydema ornata</i> (Linnaeus, 1758)
56.	<i>Eurydema oleracae</i> (Linnaeus, 1758)
	<b>7. Coreidae Leach, 1815 – oilasi</b>
57.	<i>Centrocoris volxemi</i> (Puton, 1878)
58.	<i>Coreus marginatus</i> (Linnaeus, 1758)
59.	<i>Enoplops eversmanni</i> (Jakovlev, 1881)
60.	<i>Coriomeris vitticollis</i> (Reuter, 1900)
	<b>8. Anthocoridae Fieber, 1837 – oilasi</b>
61.	<i>Orius niger</i> (Wolff, 1811)
62.	<i>Orius ribauti</i> (Wagner, 1952)
63.	<i>Orius albidipennis</i> (Reuter, 1884)

Agar biz oilalar kesimda qaraydigan bo'lsak turlar sonining ko'pligi bo'yicha Miridae oilasi 43 tur bilan birinchi o'rinda tursa, ikkinchi o'rinda 16 ta tur bilan Pentatomidae oilasi, keyingi o'rinlarda Lygaeidae va Reduviidae oilalarida 5 tadan tur, Nabidae va Coreidae oilalarida 4 tadan va Tingidae va Anthocoridae oilalarida 3 tadan turlar qayd qilindi.



1–rasm. Andijon viloyatida uchraydigan qandalalar tur tarkibi (oilalar bo‘yicha)

O‘rganilgan turlarni foizlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak Miridae oilasi 37%, Nabidae oilasi 6%, Anthocoridae oilasi 5%, Tingidae oilasi 5%, Reduviidae oilasi 8%, Coreidae oilasi 6%, Lygaeidae oilasi 8%, Pentatomidae oilasi 25% larda uchrashi ma’lum bo‘ldi. Agar biz yarimqattiqqanotli hasharotlarning turlarini ekologik guruhlari bo‘yicha spektrning taqsimlanishini tahlil qilganimizda 2-jadvaldagi holatning ko‘rishimiz mumkin.


## 2 – Jadval

### Andijon viloyati hududida yarimqattiqqanotli qandalalar turlarining ekologik guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi.

№	Yashash muhiti	Turlar nomi	Soni
